



Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

MILLAT FIDOYILARI

O'T-ALANGA ICHIDA

Hargalarxiv hujjatlariga yuzlanar ekanmiz, mud-hish qatag'on yillaridagi tergov ishlari va ayblov xulosalarida bir xil manzara bot-bot ko'zga tashlanadi. Turli qatlam, turli kasb egalari – u xoh ishchi, dehqon bo'lsin, xoh savdogar yo hisobchi, xoh jamoat arbobi – kim bo'lmasin, yoppasiga "xalq dushmani"ga chiqarilgan.



(Davomi 7-sahifada)

TALQIN



MUSTAHKAM ASOS

Shu kunlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon mamlakatimizda davlat tashrifi bilan bo'lib turibdi.

Suv va energetika xavfsizligini ta'minlash, keng ko'lami madaniy va gumanitar almashinuvlarni davom ettirish muhokama qilindi.

Uchrashuv doirasida bir qator yangi qo'shma loyihalar ishga tushirildi. Ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan hujjatning imzolashini, ikki davlat iqtisodiyotlari va ishlab chiqarish zanjirlarini chuqur integratsiya qilish uchun asos yaratadi.

Bu loyihalar, o'z navbatida, mahalliy iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi va aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratishga yordam beradi.

Hududi 143 ming 100 kvadrat kilometrga cho'zilgan, salkam 10 million aholi istiqomat qiladigan Tojikiston O'zbekistonning strategik sherigi va ittifoqchisidir. Boshqacha aytganda, o'zbek va tojik xalqlari bir daraxtning ikki shoxi, bir daryoning

ikki irmog'idir. Bizning dinimiz, yerimiz va ichadigan suvimiz bir. "Ikki tilda so'zlashuvchi bir xalq" deya tavsiflangan o'zbek va tojik xalqlarini umumiy tarix, madaniyat va ma'naviy qadriyatlar, ko'p asrlik o'zaro hurmat an'analari birlashtirib turadi. Bu yaqinlik O'zbekiston va Tojikiston o'rtasida barcha sohalaridagi munosabatlar uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Yaqin tariximizda O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi aloqalar ko'pincha murakkab kechgani, siyosiy, iqtisodiy va madaniy to'siqlar mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarni cheklab kelganini bilamiz.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning oqilona tashqi siyosati tufayli qo'shni davlatlar o'rtasidagi "muzlik"lar eridi.

(Davomi 2-sahifada)

BUGUNNING SHE'RI

AXTAMQULI

ALYOR

Yangi kun – Navro'zi olam – yangi dostonim mening,
Gullagay qalbm aro yer birla osmonim mening.

Kuylagay bulbul yonib, gul bazmida pinhona mast,
Baytlaringma jo bo'lar osuda har onim mening.

Ey quyosh, boshimga nur sochding hamal ardog'ida,
Bog'laringdan bol yig'ib, quv naydi bog'bonim mening.

Yer-u ko'kka iltijo aylaydi gul sochgan o'rik,
Rizqimizni yog'dirib turgay Nigohbonim mening.

Senga bu jonim fido, borliqni quv natgan zamin,
Tongda qaldirg'ochlaring bo'lgay suxandonim mening.

Ko'zlarim xirmonida tuprog'i zar sochgan diyor
Tinchligimga baxt ulashgay, O'zbekistonim mening.

Beqiyos yurt ishqida parvonadir Axtamquli,
Jonajonimga fido bo'lsin, dil-u jonim mening.

FAKT

- ✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon o'nta yirik kooperatsiya loyihasi ishga tushirish marosimida ishtirok etdilar.
- ✓ Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda 2025-yilda yalpi ichki mahsulot hajmi joriy narxlarda 1 849,7 trln so'mni tashkil etgan.
- ✓ O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi.
- ✓ Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida og'ir atletikaga ixtisoslashtirilgan Akbar Jo'rayev nomidagi sport maktabi ochildi.

ABDULLA O'RIPOV TAVALLUDINING 85 YILLIGI

SHE'R VA SHAXSIYAT

"BU SHE'R KOSHONASI..."

Xabaringiz bor, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov tavalludining 85 yilligini adabiyot va kitobxonlik bayrami sifatida munosib nishonlash, ijodiy merosini keng ommalashtirish belgilab berildi. Bu ham Davlatimiz rahbarining adabiyotga, adabiyot ahliga qaratayotgan e'tiborining yaqqol namunasi.

Bugun ana shu muhim vazifalardan biri amalga oshirildi – Abdulla Oripov uy-muzeyi ochildi.

Ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi vakillari, turli vazirlik va idoralar, ijodiy tashkilotlarning mutasaddilari, yozuvchi va shoirlar, adabiyot muxlislari, musavvirlar, ijodkor ziyolilar to'plandi.

(Davomi 4-sahifada)



AZALIY VA ABADIY DO'STLIK

"SIZLARNI YUZ YIL KUTDIK!"



O'tgan asrning 60–80-yillarida yurtdoshlarimizdan kimdir xorijiy mamlakatga sayohat qilsa, u albatta o'z safari taassurotlarini qog'ozga tushirib, matbuotda e'lon qilishga oshiqardi. Havasmand o'quvchilar bu kabi maqolalarni qiziqish bilan mutolaa qilar, o'zlari ko'rmagan-bilmagan yurtlar haqida ma'lumot olishga intildirdi. Zero, sobiq tuzum davrida kishilarning xorijga chiqishi anqoning urug'idek noyob hol edi.

Bugun esa mustaqillik va erkinlik sharofati bilan o'zbekistonliklar dunyoning turli davlatlarida ishlamoqda, ta'lim olmoqda va yashamoqda. Shu bois, xorij taassurotlari haqidagi maqolalar avvalgidek katta qiziqish uyg'otmasligi mumkin.

(Davomi 3-sahifada)

SARHISOB



MILLIY KINO TAYANCHI

"Tirik tarix" xalqaro forumi va "Oltin Humo – 2025" milliy kino taqdimotidan so'ng

Tarixiy mavzudagi spektakldan qattiq ta'sirlangan nemis dramaturgi Fridrix Shiller do'sti logann Wolfgang Gyotega maktub yozib, o'z hayratini bayon qilgani haqida mashhur hikoya bor. Unda Shiller sahnada badiiy mahorat bilan jonlantirilgan tarixiy voqealar tomoshabiniga go'yo bugun sodir bo'layotgandek ta'sir qilishini ta'kidlaydi. Chunki sahnadagi qahramonlarning kechmishi, dialog va monologlari tomoshabin qalbiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

(Davomi 5-sahifada)

KELAJAK OVOZI

"BIZ – O'ZBEKNING YUZIMIZ"

Suhbatdoshimiz: Nodirjon Fatxullayev. Toshkentda tug'ilib o'sgan. Yevropadagi eng nufuzli, dunyo bo'yicha top universitetlar qatoridan o'rin olgan Karlov universiteti umumiy tibbiyot yo'nalishi talabasi. Universitet hayotida faol: akademik senat a'zosi sifatida universitet darajasidagi qarorlarni qabul qilishda ishtirok etadi. Tibbiyot talabalari xalqaro uyushmasi koordinatori. Chexiyadagi o'zbekistonlik talabalar va yoshlar assotsiatsiyasi a'zosi. Shuningdek, "Studensmedicus" blogini ham yuritadi.



– Nodirjon, Yevropada o'qish qiyin, talablari qattiq, deyishadi. Nima uchun aynan Chexiyada o'qishni, ustiga ustak, tibbiyotday o'ta mas'uliyatli sohani tanlagansiz?

(Davomi 3-sahifada)



MUSTAHKAM ASOS



Boshlanishi 1-sahifada.

Bugun O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi munosabatlar yaxshi qo'shniçilikdan yuksalib, yuqori darajadagi sheriklik shaklini olgan. Bu o'zgarishning eng muhim belgisi 2025-yil 31-martda O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomaning kuchga kirishi bo'ldi.

Davlatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikning yuksalishi savdo ko'rsatkichlarida ham yaqqol namoyon bo'lib turibdi. 2017-yilda savdo hajmi 70 million dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda u birinchi marta 500 million dollarga yetdi. Ushbu raqamlar o'zaro munosabatlardagi burilish nuqtasini aniq aks ettiradi. 2025-yil mamlakatlarimiz o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 30 foizga o'sib, 912,3 million dollarni tashkil etdi.

Ayni paytda ikki davlat hududida 500 dan ziyod qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Bu raqamlar shunchaki statistika emas. Ular ikkita muhim xulosaga ishora qiladi. Birinchidan, O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi iqtisodiy yaqinlashuv allaqachon barqaror tendensiyaga aylangan.

Ikkinchidan, o'sib borayotgan savdo hajmi hali katta salohiyat mavjudligidan dalolat beradi. Statistika yana bir muhim jihatni tasdiqlaydi. 2025-yilda O'zbekiston 11 foizdan ko'proq ulush bilan Tojikiston eksportining asosiy bozorlaridan biriga aylandi. Bu O'zbekiston Tojikiston uchun nafaqat qo'shni, balki uning tashqi iqtisodiy aloqalarining amaliy ustuniga aylananotgani dalilidir.

Savdo hajmining o'sishiga qaramay, mavjud ko'rsatkich hali mamlakatlarimizning iqtisodiy salohiyatini to'liq aks ettirmaydi. Mazkur holat nafaqat tovarlar hajmi, balki ularning tarkibi masalasidir.

Hozirgi vaqtda xomashyo, oziq-ovqat, neft mahsulotlari, sanoat va iste'mol tovarlari ikki tomonlama savdoda muhim o'rin tutadi.

Ya'ni, savdo o'sdi, ammo yuqori qo'shimcha qiymatga ega sanoat mahsulotlarining ulushi hali hal qiluvchi darajaga yetmadi. Shu ma'noda, keyingi bosqichning asosiy maqsadi savdo aylanmasini mexanik ravishda oshirish emas, balki uning sifatini yaxshilashdir.

O'zbekiston-Tojikiston munosabatlarida sanoat hamkorligiga bo'lgan qiziqishning oshishi tasodif emas. Avvallari munosabatlar asosan tranzit, chegara masalalari va savdoni liberallashtirishga qaratilgan bo'lsa, endilikda qo'shma ishlab chiqarish, investitsiyalar va tarmoqlar orasidagi aloqalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qo'shma loyihalar orasida transport-logistika sohasidagi tashabbuslar alohida o'rin egallaydi.

Xususan, Farg'ona viloyatida umumiy qiymati 100 million dollarlik 200 dan ziyod obyektlar – ishlab chiqarish maydonlari, omborxonalar, mehmonxona va moliya infratuzilmasini o'z ichiga olgan "Anadaxon" savdo-logistika markazining qurilishi eng yirik loyihalardan biridir.

Shu bilan birga, "Jartepa-Sarazm" va "Oybek-Fotehobod" kabi chegara o'tish punktlarining o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish, chegaraoldi hududlarda yangi logistika markazlarini barpo etish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda.

Bunday markazlar bir kunda 100 tagacha yuk mashinalariga xizmat ko'rsatishi kutilmoqda. Xususan, xalqaro moliya institutlari va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini jalb qilgan holda, yuqorida aytilgan o'tkazish punktlari yaqinida yirik logistika markazini qurish masalasi ko'rib chiqilmoqda. Bundan tashqari, Urgut tumanida yirik yuk oqimlarini boshqarish va chegara tartib-taomillarini soddalashtirishga qaratilgan logistika markazini barpo etish masalasi muhokama qilinyapti. Multimodal transport yo'laklarini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, sinov tariqasida Xitoy – Tojikiston – O'zbekiston yo'nalishida tashuvlarni yo'lga qo'yish ustida ish olib borilmoqda. Bu mintaqaning tranzit salohiyatini kuchaytirib, uni "Yangi ipak yo'li" tashabbuslari bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Xalqaro avtomobil tashuvlari uchun ruxsatnomalarning elektron shakliga o'tkazilishi ham muhim qadamlardan biri bo'ldi. Qayd etish joizki, Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O'zbekiston ulkan transport-tranzit salohiyatiga ega. Tojikistonning transport-logistika tarmog'i esa mamlakatimiz bilan chambarchas bog'langan. Demak, infratuzilma imkoniyatlaridan birga foydalanish nafaqat ikki mamlakat, balki butun mintaqa rivojlanishiga xizmat qiladi.

Energetika sohasida ham o'zaro hamkorlik jadal tus olgan. Mazkur yo'nalishdagi muhim loyihalar qatoriga umumiy quvvati 320 MVt bo'lgan Yovon va Fandaryo gidroelektr stansiyalarini kiritish mumkin. Bu obyektlar yiliga 1,4 milliard kVt soat elektr energiyasi ishlab chiqarish

imkoniyatiga ega bo'lib, bu energiya mamlakatlar o'rtasida teng taqsimlanadi. Bu ulami mintaqa energetika sohasidagi xavfsizligining muhim elementi aylantiradi. Ayni paytda, Rog'un GESI bo'yicha ham hamkorlik qilinmoqda.

2021-yilda tashkil etilgan O'zbekiston-Tojikiston investitsiya kompaniyasi biznesni institutsional qo'llab-quvvatlashda alohida o'rin tutadi. Ustav kapitali 50 million dollar bo'lgan ushbu tuzilma hozirda 36 ta ustuvor yo'nalish, jumladan, energetika, sog'liqni saqlash va bank sohasidagi loyihalarni qo'llab-quvvatlammoqda.

Yangi O'zbekistonning ochiqlik, iqtisodiyotni liberallashtirish, investitsiyaviy iqlimni rivojlantirish va mintaqaviy hamkorlik modeli Tojikiston bilan o'zaro hamkorlikni chuqurlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunga chegara masalalarining hal etilishi, 2018-yilda ikki mamlakat fuqarolarining o'zaro tashriflari uchun 30 kungacha viza rejimining bekor qilinishi misol bo'la oladi. O'tgan yili O'zbekistonga xorijdan 11,7 millionga yaqin, ya'ni 2024-yilga nisbatan 47 foiz ko'p turistlar tashrif buyurgan bo'lsa, ular orasida Tojikiston fuqarolari ikkinchi o'ringa turadi (2,7 milliondan ortiq sayyoh). Iqtisodiy hamkorlikni mahalliy darajada jadallashtirish imkonini bergan chegara hududlari o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri aloqalar mintaqalararo hamkorlik modelining muhim elementi hisoblanadi. Buning natijasida so'nggi yillarda So'g'd va Xatlon viloyatlarining Samarqand va Surxondaryo viloyatlari bilan hududlararo hamkorligi faol rivojlanmoqda.

2025-yil 31-mart kuni Xo'jandda Tojikiston, O'zbekiston va Qirg'iziston davlat rahbarlari uch mamlakat davlat chegaralarining tutashgan joyi to'g'risida tarixiy shartnomani imzoladilar. Ushbu uchrashuvda qo'shma deklaratsiya qabul qilindi va Do'stlik stellasi ochildi.

O'zbekistonning Qirg'iziston va Tojikiston bilan savdo aylanmasi hajmining deyarli yarmi chegara hududlariga to'g'ri keladi. Shuning uchun boxjona postlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy savdo va logistika infratuzilmasini yaratish taklif qilindi. Bundan tashqari, avtobuslar sonini ko'paytirish va chegara hududlaridagi shaharlar o'rtasida yangi yo'nalishlarni ochish to'g'risida kelishuv e'lon qilindi. Bu jarayon muhim ahamiyatga ega, chunki O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi munosabatlarning keyingi o'sish nuqtasi aynan chegara hududlarida joylashgan. Agar logistika arzonlashsa va sayohat osonlashsa, ikki tomonlama iqtisodiy integratsiyada sifat jihatidan o'zgarish yuz beradi.

O'zbekiston va Tojikistonning mustahkam hamkorligi ko'p jihatdan ikki davlat siyosiy yaqinlikni institutsional va sektoral integratsiyaga qanchalik tez o'zgartira olishiga bog'liq. Hozirgi barcha sohadagi ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, Toshkent va Dushanbe bu yo'ldan dadil oldinga intilmoqda.

Jamoliddin BADALOV

MUNOSABAT



QONUN KUCHAYMOQDA. ANDISHA-CHI?

Sharq jamiyatini tartibga solgan asosiy kuch azaldan axloq bo'lib kelgan. Asrlar davomida andisha, uyat, or-nomus, hayo, iymon, vijdon kabi tushunchalar xalqimizning ma'naviy qonuni hisoblangan. Inson qonundan qo'rqib emas, odamlardan uyalgani, andisha qilgani uchun huquqbuzarlik va jinoyatga qo'l urmagan. Avval andisha, or-nomus bilan hal qilingan masalalar taraqqiyot jarayonida qonun va jazo bilan tartibga solinadigan jinoyatlar ro'yxatiga qo'shildi.

Andishasizlik, uyatsizlik, orsizlik, nomussizlik, hayosizlik, iymonsizlik, vijdonsizlik illatlari bugun faqat axloqsizlik emas, balki jinoyi javobgarlikka sabab bo'layotgan holatlardir. Ayniqsa, zamonaviy dunyoda insonning hissiy ehtiyojlari va ma'naviy tanazzuli tufayli jinsiy zo'ravonlik turlari ko'payib, alohida-alohida turkulanmoqda.

Bu muammo aholisi bir millionga yetmagan Sirdaryo viloyatida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Xususan, nomusga tegish holatlari 2024-yilda 4 ta bo'lsa, 2025-yilda 7 taga yetgan. Jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib, g'ayritabiiy usulda qondirish holatlari 2024-yilda 10 ta, 2025-yilda 9 ta. Besoqolbozlik bo'yicha 2024-yilda 1 ta, 2025-yilda 3 ta holat qayd etilgan. Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlariga jalb etish 2024-yilda 11 ta, 2025-yilda 7 ta, 16 yoshga to'lmagan qizlar bilan jinsiy aloqa qilish holatlari 2024-yilda 18 ta, 2025-yilda 17 ta. 16 yoshga to'lmagan shaxsiga nisbatan uyatsiz harakatlari bo'yicha 2024-yilda 3 ta, 2025-yilda 5 ta holat qayd etilgan. Bu faqat birgina viloyatning ro'yxatiga olingan ko'rsatkichlari, xolos. Qo'rquv yoki ijtimoiy bosim sababli ochiqdanmay qolgan holatlar qancha.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 3-mart kuni qabul qilingan "Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to'g'risida"gi farmoni ayni muammolarga javob sifatida muhim huquqiy hujjatlardan biri bo'ldi. Farmonning mazmun-mohiyatidan anlashiladiki, davlat jamiyat xavfsizligiga tahdid solayotgan bunday jinoyatlarga nisbatan muvazirlikni yanada kuchaytirish, ayrim holatlarda esa umrbod ozodlikdan mahrum qilish kabi qattiq choralar belgilanmoqda.

Bilamizki, har qanday jinoyatning oldini oladigan maskan oiladir. Agar insonni andisha, uyat to'xtatmasa, muayyan jazo har doim ham to'xtata olmaydi. Shuning uchun qonunlar bilan bir qatorda axloqiy immunitetni kuchaytirish, insonlarning ruhiy-ma'naviy sog'lomligini mustahkamlash, yosh avlodni yuksak qadriyatlar va mas'uliyat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Bu vazifalar, avvalo, oilada amalga oshirilishini hech birimiz unutmashimiz lozim.

Bahrom BOYMURODOV,
O'zbekiston Jurnalistlari
Ijodiy uyushmasi a'zosi

FIKR



O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasida mahzun sahna bor: "Bahor devorlarning oftobro'ya etaklaridan boshlanmaydi. Bahor arilqlarning kungay sohillaridan boshlanmaydi. Bahor go'ristondan boshlanadi. Ilk maylar mungli do'ppaygan qablar yonboshidan unib chiqadi. To'ng'ich chuchmomalari eng avval sukutga cho'mgan qabriston ustida ma'yus qo'ng'irog'ini chaladi. Bag'ri qon qizg'aldoqlar birinchi bo'lib mana shu yerda ochiladi. Kim bilsin, tabiatning marhumlar ruhiga yilda bir marta ko'rsatadigan marhamati ehtimol shudir..."

Bahor boshida odamlar yo'l oladigan ilk manzil ham ana shu mozorot bo'ladi. Odamlar ajdodlari, ota-onalari, jigarlari, jigarbandlari, yaqinlari qabrini o'z o'rnida qurib, ular yotgan makon obodligiga hissa qo'shish uchun harakat qiladi. Bu ishga mahalla raislari, nuroniyalar, faollar bosh bo'ladi. Hashar bahona mahallaning yillik "hisobot yig'ilishi" o'tkaziladi. Yangi rejalar tuziladi. Ulug'larning yo'l-yo'rig'i bilan yosh yigitlar katta hayot sabog'ini oladi.

QADRIYATMI, MAJBURIYAT?

Avvallari yigitlar o'zini ko'cha "razbor"-larida, pichoqbozlik, "samosud" yo tarmoqlarda ko'rsatmagan. Yo'q, ular yo mard bo'lib maydonda olishgan, yo hasharlarda o'z kuchini, salohiyatini ko'rsatib qo'yg'an. Birgina ketmon chopishi yo arra tortishini ko'rib, bu bolaning tarbiyasi, kelajagi haqidagi ma'lumotlarni uqib olgan ish ko'zini biladiganlar.

Mozorlardan boshlangan hashar mahalla ko'chalari, maktab, yolg'iz keksalar, ko'p bolali ayollarning uylarida davom etgan. Bu ishlar uchun hasharchilar na haq, na rag'bat kutgan. Bu ezgu qadriyat odamlar orasidagi muloqot, avlodlar o'rtasidagi ko'priq, ajdodlar ruhiga hurmat, kishilarning mehr-olibat rishatlarini mustahkamlagan. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning xalqimizga va Oliy Majlisga yo'llangan Murojaatnomasida quyidagi so'zlar bejiz ta'kidlanmagan: "Tarix davomida qanday og'ir sinovlarga duch kelmaylik, biz avvalo birdamlikdan kuch oldik. Mashaqqatli kunlarda odamlarimiz, mahalla ahli yelkadosh bo'lib qiyinchiliklarni yenggan. Oila – oilaga, qo'shni – qo'shniga ko'mak berib yashagan. Biz mana shunday o'ta noyob qadriyatimizga doimo sodiq qolishimiz, yosh avlodimizni ayni shu ruhda tarbiyalashimiz kerak".

To'g'ri, o'tgan asrda sovetlar o'zbek xalqining ming yillarga borib taqaladigan yuksak qadriyatini suiste'mol qilib, butun xalqni paxta dalasiga bandi qilib qo'ydi. Keyin ham odamlar hashar desa yuragi bezillaydigan, "hashar" laqabli "ixtiyoriy-majburiy" mehnatga toqatsiz bo'lib bordi. Natijada, majburiy paxta terimi yo'qolishi bilan elning qadriyati bo'lgan hashar tushunchasi ham begonalarib ketdi. Garchi hukumat tomonidan umumxalq hasharlari e'lon qilinsa-da, unda ishtirok etishni rad etadiganlar topildi. Albatta, hashar mutlaqo erkin mehnat turi, unda majburlash bo'lsa to'g'ridan to'g'ri majburiy mehnat toifasiga kiradi. Lekin o'ylab qarasa, hashar doim ham mutlaqo ixtiyoriy bo'lmagan. Inson qachon o'z ixtiyori bilan jismoniy mehnatga oshiqqan?

Hasharning asrlar silsilasidan omon o'tib kelishining sababi unda qonunning emas, vijdonning amri – majburlov kuchi borligida edi. Vijdon yoniga o'zbekchilik, andisha, nomus qo'shilgan.

"Suyunchi" filmi esa slaysiz. Hukumatdan yordam ko'lavermagani, Anzirat buvi hashar yo'li bilan ko'priq solishni boshlaydi. Bundan xabar topgan rais voqea joyiga yetib kelib, avvalo, hasharchilarga qarashgan bo'ldi,

hissa qo'shadi. Ana undan keyin buvini chetga tortib, yaqinda standartlarga mos ko'priq qurilishini xabar qiladi. Agar o'sha davrda raislarning obro'sini hisobga olsak, u Anzirat buvini idoraga chaqirtirishi yoki to'g'ri kelib, gap boshlashi mumkin edi. Biroq u ham xalqning hashar degan qadriyati bilan hisoblashishga majbur.

O'z uyi, ishxonasini obod qilish dunyo miqyosida olganda ham eng oddiy madaniy va tibbiy ehtiyojdir. Bu masalalarda ko'pchilikning harakati tez va unimli samara beradi. Axir "Tashabbuskor byudjet" loyihasi ham oxir-oqibat hasharning onlayn ko'rinishi emasmi?

Shunday ekan, hasharning qadriyat va majburiyat chegaralari haqida bir o'tirib o'ylaydigan odam kerak. Ayniqsa, "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili"da hasharning milliy va huquqiy maqomi, targ'iboti va tartibotiga oid yechimlar berilsa, nur ustiga nur bo'lardi.

Bugun kim hasharga qo'shilar ekan, uning qulog'i ostida hazrat Navoiyning ushbu bayti jaranglab tursa, shoyad:

Naf'ing agar xalqqa beshakdurur,
Bilki, bu naf' o'z zungga ko'prakdurur.

Otabek BAXTIYOR



Boshlanishi 1-sahifada.

“BIZ – O‘ZBEKNING YUZIMIZ”

– Yevropada o‘qish haqiqatan ham oson emas: talablar yuqori, raqobat kuchli, har bir natija mehnat bilan qo‘lga kiritiladi. Lekin men uchun aynan shu muhit kerak edi. Chunki qattiq talab qo‘yiladigan tizim insonni chiniqutiradi, faqat bilim beribgina qolmay, mas’uliyat, intizom va mustaqil fikrlashga ham o‘rgatadi.

Chexiyani tanlashimning bir necha asosiy sababi bor. Birinchisi – ta’lim an’analari va sifati: bu yerda tibbiyot maktabi uzoq tarixga ega, klinik tajriba bilan nazariya bir-biriga bog‘langan, talabning qo‘lida faqat kitob emas, bemor oldidagi haqiqiy mas’uliyat ham bor. Ikkinchisi – xalqaro muhit: turli davlatlardan kelgan talabalar bilan o‘qish fikr doirasini kengaytiradi, tibbiyotga va hayotga kengroq qarashni o‘rgatadi. Uchinchisi – Chexiya moliyaviy jihatdan o‘rtamiyona yashaydigan o‘zbek oilasi uchun G‘arbiy Yevropaning ko‘p davlatlariga qaraganda ancha qulay: kundalik xarajatlari va yashash narxlarini nisbatan arzon.

Keyingi savolingizga kelsak, tibbiyot men uchun shunchaki kasb emas, insonlarga xizmat qilishdir. Ishi tushgan insonning salomatligi, hayoti, oilasi, ertasi sening qaroringga bog‘liq bo‘ladi. Bu sohada taxmin emas, dalilga asoslangan bilim, sovuqonlik va bir vaqtning o‘zida insonparvarlik talab qilinadi. Mana shu yuqori mas’uliyat meni o‘zgacha tarbiyalaydi, o‘zimni ham, dunyoqarashimni ham uzluksiz ravishda o‘zishga majbur qiladi.

– Musofirlikning noni qattiq bo‘ladi. “Musofir bo‘lmaguncha musulmon bo‘lmaysan”, degan maqol ham bor. O‘zga yurtga, o‘zga urf-odatli, o‘zga mentalitet odamlariga, butunlay begona muhitga moslashib ketish oson bo‘lmagandir? Topganlaringiz va yo‘qotganlaringiz haqida gapirib bera olasizmi? Insonning shaxs sifatida shakllanishiga uning dunyo ko‘rishini nechog‘lik ta’sir qiladi, deb o‘ylaysiz?

– Albatta, musofirlikning noni qattiq. Bu gapni men nazariyada emas, amalda his qilganman. Chet elga chiqqan inson, avvalo, til, hujjat, ijara, dars, ish, kundalik mayda tashvishlar bilan yuzma-yuz qoladi. Lekin eng og‘iri maishiy qiyinchilik emas, ichki his-tuyg‘u: o‘z uyidagi “tabiiy” bo‘lgan narsalardan kechasan. Sen kimligingni, qanday qadriyatlariga tayanishingni har kuni o‘zingga isbotlab yashaysan. Moslashish oson bo‘lmadi. Boshida muhit begona: odamlarning muloqoti, yumor, masofasi, tartib-qoidasi, hatto mayda odatlari ham boshqacha. Biroq vaqt o‘tib tushunasan: begona

muhit senga qarshi emas, u seni tarbiyalaydi. Sen esa u yerda o‘zingni yo‘qotmasliging, o‘rganishni bilishing kerak.

Topganlarim ko‘p. Birinchisi – mustaqillik. Chetda inson hech kimga suyuq olmaydi: qarorni ham o‘zi qabul qiladi, oqibatini ham o‘zi ko‘radi.

Ikkinchisi – intizom va vaqt qadri. Bu yerda vaqtga munosabat qattiq: kechiksang, demak, tayyor emassan. Uchinchisi – fikrlash madaniyati: men turli millat va turli qarashdagi odamlar bilan o‘qib, bir haqiqatni tushundim: ilmda his-tuyg‘u emas, dalil gapiradi. Bu menga ham ichki tartib, ham kasbiy xolislik berdi. TEng muhimi, Vatan qadri. Odam o‘z uyidan uzoqlashganda, Vatanni ko‘proq his qiladi. O‘zbekiston men uchun geografik joy emas, mas’uliyatga aylandi.

Yo‘qotganlarim ham bor. Eng katas – oilam bilan birga bo‘lishdagi oddiygina baxt. Yaqinlarningning quvonchli va tashvishli lahzalarida yonida bo‘la olmaslik og‘ir.

– Vatan sog‘inchi ko‘z o‘ngingizda qanday namoyon bo‘ladi?

– Sog‘inch ko‘proq oddiy narsalarda bilindi: uydagilarning ovozi, ona tilida suhbat, bolalikdagi odatlar, taomlar, hatto havoning hidi. Bayram kunlari yoki oila bilan birga bo‘lish kerak bo‘lgan paytlarda bu his yanada kuchayadi. Biroq bu hissiyat menga o‘zimni yig‘ishtirib olishga undaydi va maqsadimni eslatib turadi: insonlarga foyda keltiradigan kasbni puxta egallash va yurtimga kerakli inson bo‘lish.

– Chexiyada o‘zbeklar ko‘p ekan. O‘z vatandoshlaringizni uchratganda, nimalarni his etasiz?

– Avvalo, xursand bo‘laman. O‘z tilimda “Assalomu alaykum” deya so‘rashish imkonini yurakka issiqlik beradi. Biroz bo‘lsa ham, o‘zingni o‘z uyingdagedek his qilasan odam. Shu bilan birga, menda mas’uliyat ham paydo bo‘ladi: biz bu yerda o‘zimni qanday tutishimiz bilan xalqimiz haqida tasavvur paydo qilamiz. Biz bu yerda o‘zbek millatining yuzimiz.

Ba’zi o‘zbek yigit-qizlari og‘ir ishlar qilib, pul topib yurishadi. Men ularni ayblamayman. Ko‘pchiligi oilasiga yordam berish ilinjida. Halol mehnat uyat emas. Lekin “O‘qiyman” deb kelib, ishga berilib ketib, o‘qishni orqaga surib qo‘ygan yigit-qizlarni ko‘rsam, ichim achiydi. Men o‘z millatim vakillarini baland maqsadlar bilan yashayotganini ko‘rishni istayman. “Keyinroq o‘qiyman” degan gap yillar davomida davom etishi va bora-bora bu istak butunlay yo‘qolib

ketishi mumkin. Ishlashga majbur bo‘lsa ham, maqsadni yo‘qotmaslik lozim.

– Rivojlangan davlatlar tajribasini ko‘rgan ziyoli inson sifatida O‘zbekistonda ta’lim va tibbiyot tizimini yanada kuchaytirish uchun qanday takliflaringiz bor? Men o‘ylaymanki, hammasini insonlarning ongini, dunyoqarashini o‘zgartirishdan, har kim o‘zini o‘zi tarbiya qilishdan boshlashi kerak. Ko‘pincha farzandi tug‘ilganida qarz olib bo‘lsa ham dang‘illama beshik to‘yi o‘tkazgan, to‘qlarni to‘ydirib boyligini ko‘z-ko‘z qilgan ota-onalar, payti kelganda o‘sha farzandiga kitob olib berishga yoki uni qo‘shimcha to‘garaklar, o‘quv kurslariga yuborishga, ta’lim olishiga sarflash uchun pullarini qizg‘anadilar. Vaholanki, ta’limga tikilgan pul – kelajak uchun eng yaxshi sarmoya. Siz bunga nima deysiz?

– Men ham siz aytgan fikrga qo‘shilaman: islohotlar insonning ongi va dunyoqarashidan boshlanadi. Chunki tizimni inson tashkil qiladi: rahbar, shifokor, o‘qituvchi, ota-ona... Agar jamiyatda “ko‘z-ko‘z” qilish emas, bilim va mehnat qadrlansa, ta’lim ham, tibbiyot ham tezroq rivojlanadi. Ta’limga sarflash vaqti kelib faqat bir insonni emas, butun oilani, butun millatni, hatto butun insoniyatni yuksakka ko‘tarishi mumkin.

Men bunday tarbiyani o‘z oilamdan ko‘rganman. Bizning uyda biror yumushni bajarishim, qayergadir borishim kerak bo‘lib qolgan paytda bir og‘iz “imtihonim bor” desam, hech kim meni majbur qilmagan. “Bor, darsingni qil”, deyshardi. Men boy oiladan emasman, lekin ota-onam har doim ta’limni birinchi o‘ringa qo‘ygan: turli to‘garak, qo‘shimcha darslar, til kurslari, kerak bo‘lsa, kitob va materiallar... O‘qish uchun pul kerak bo‘lsa, imkon boricha hech qachon rad etishmagan. Mening Chexiyaga kelib o‘qishim ham ota-onamning shu qo‘llab-quvvatlashi va uzoqni ko‘ra olgan oqilona investitsiyalari tufayli bo‘ldi.

Tizimga taklif sifatida qisqacha aytсам: ta’lim va tibbiyotda sifatini baholash va javobgarlikni kuchaytirish, dalilga asoslangan yondashuvni kengaytirish, yosh mutaxassislarni qo‘llab-quvvatlash hamda ota-onalar orasida “to‘yga emas, bilimga sarflash” madaniyatini kuchaytirish kerak. Shu o‘zgarishlar bir-birini to‘ldirib, natija beradi, deb o‘ylayman.

– Yevropada talabalar uchun yaratilgan qulayliklar haqida gapirib

bersangiz.

– Yevropada, xususan, Chexiyada talabalar uchun qulayliklar ko‘p, lekin talab ham qattiq. Ta’lim tizimi odatda juda aniq: dars jadvali, imtihon talablari va baholash mezonlari oldindan ma’lum bo‘ladi, shuning uchun tayyorgarlikni rejalashtirish osonroq. Universitet kutubxonalarini va onlayn manbalari yaxshi ishlaydi, ko‘p ilmiy materiallarga kirish imkoniyati bor. Talabalar uchun jamoat transportida chegirmalar, ba’zi joylarda talabalar turar joyi, sport imkoniyatlari va talabalar tashkilotlari orqali hayotga moslashishni yengillashtiradigan muhit yaratilgan. Tartib-qoida ham muhim: ko‘p ish qonun asosida, tizimli ketadi, hujjat ishlari va kundalik masalalarda ham aniq bo‘lgani talabaga xotirjamlik beradi.

Noqulay tomonlari ham yo‘q emas, albatta. Eng katas – yuklamaning ko‘pligi: ayniqsa, tibbiyotda material ko‘p, imtihonlar qattiq, stress yuqori, ba’zan dam olishga vaqt topilmaydi. Oila va yaqinlar uzoqda bo‘lgani uchun yolg‘izlik hissi paydo bo‘lishi mumkin, chunki bu yerda ko‘p narsani o‘zing hal qilishingga to‘g‘ri keladi. Qimmatlilik masalasi ham bor: ijara, oziq-ovqat va boshqa xarajatlari hamyonni qattiq nazorat qilishni talab etadi.

– Siz tibbiyot sohasida o‘qish bilan birga, blogerlik ham qilasis. Chexiyadagi talabalar hayotini yoritib borasiz. Bundan ko‘zlangan maqsad nima?

– Men blogerlikni Chexiyadagi talabalar hayoti haqida haqqoniy tasavvur berish uchun qilaman. Ko‘pchilikka chet elda o‘qish ushalmas orzu yoki juda qimmatdagi ko‘rinadi. Men esa amaldagi yo‘lni, tayyorgarlikni, hujjat ishlarni, til masalasini va kundalik hayotni oddiy, tushunarli qilib ko‘rsatishga urinaman. Motivatsiya va yo‘l-yo‘riq beraman: abituriyentlar va ota-onalarni haddan tashqari qo‘rqitmasdan, bir vaqtning o‘zida ortiqcha o‘y-xayollarga berilishiga yo‘l qo‘ymasdan, real faktlarni ular bilan bo‘lishaman. Chexiyada o‘qishni o‘rtacha o‘zbek oilasi ham moliyaviy va madaniy jihatdan ko‘tara oladi, deb bilaman. Maqsadli reja, to‘g‘ri ma’lumot va tayyorgarlik bo‘lsa, bu yo‘l ko‘pchilik uchun ochiq. Men aynan shu imkoniyatlarni ko‘rsatishni, odamlarga ishonch va aniq yo‘l xaritasi berishni ko‘zlanganman.

– O‘qishdan va ishdan ortib badiiy kitoblar ham o‘qiyasizmi? Umuman, raqamli texnologiyalar zamonida badiiy kitob o‘qish nechog‘lik zarur va insonga nima beradi, deb



o‘ylaysiz?

– Badiiy kitob o‘qish muhim, deb bilaman. Raqamli texnologiyalar zamonida, ayniqsa, kitob insonga insonligini eslatib turadi. Kitob o‘qigan odam tiniq fikrlaydi, diqqatni jamlay oladi, hissiyot va tafakkuri boy bo‘ladi. Eng muhimi, kitob sabr qilishni o‘rgatadi va chuqur tafakkur qilish qobiliyatini shakllantiradi. Lekin rostini aytсам, hozir men badiiy adabiyotni ko‘p o‘qiy olmayapman. Tibbiyotda o‘qish yuklamasi katta, vaqtning asosiy qismi dars va amaliyotlar bilan o‘tadi. Bo‘sh vaqt topilsa, men ko‘proq tarixga oid kitoblarni o‘qiyman, shu jumladan, O‘zbekiston tarixi haqidagi asarlar meni qiziqtiradi.

– Yevropada ta’lim olgan jadid bobolarimiz Yevropa ta’lim tizimi, fan-texnikasi va jamiyat boshqaruvi tajribasini o‘rganib, uni o‘z yurti taraqqiyoti uchun qo‘llashga harakat qilganlar. O‘qishni tugatgandan keyin o‘z oldingizga qo‘ygan maqsadlaringiz qanday?

– Asosiy maqsadim – yaxshi vrach bo‘lish va orttirgan bilimimni Vatan manfaatiga, xalq manfaatiga xizmat qildirish. Men uchun diplomning o‘zi yetarli emas: klinik fikrlash, dalilga asoslangan tibbiyot, bemorga hurmat, jamoada ishlash va tizimli tashkilotchilik madaniyatini o‘zimga mustahkamlash muhim. Keyinchalik O‘zbekistonning ham shu standartlarga yaqinlashishiga hissa qo‘shishni istayman.

Men jadid bobolarimizning yo‘lini hurmat qilaman. Ular Yevropani ko‘rib, fan va ta’lim tajribasini o‘rganib, o‘z yurti uchun yangi maktablar ochgan, dunyoviy fanlarni joriy etgan, millat ongini uyg‘otishga harakat qilgan. Men

ham shu ruhni davom ettirishni: chetda ko‘rganimni ko‘r-ko‘rona ko‘chirish emas, balki O‘zbekiston sharoitiga moslab, amalda foydali bo‘ladigan shaklda qo‘llashni xohlayman. Shuning uchun kelajakda faqat vrach sifatida emas, ta’limda va jamiyat hayotida ham foydali ishlar qilishni, talabalarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, chet elda o‘qish imkoniyatlarini real va mas’uliyatli tarzda tushuntirish, odamlarda bilimga qiziqish va ishonch uyg‘otishni istayman.

– O‘zbekistonlik tengdoshlaringizga dil so‘zlaringiz?

– Mening tengdoshlarimga aytadigan gapim shu: imkoniyat bor, lekin u o‘z-o‘zidan kelmaydi. Har kim o‘z hayoti uchun javobgarlikni olsa, har kuni oz bo‘lsa ham o‘z ustida ishlasa, natija, albatta, bo‘ladi. Kimdir tezroq, kimdir sekinroq yuradi, lekin eng muhimi, to‘xtab qolmaslik. Iltimos, bilimni ikkinchi o‘ringa surmang. To‘y, gap-so‘z, boylakni ko‘z-ko‘z qilish o‘tib ketadi, lekin bilim va kasb siz bilan qoladi. Til o‘rganing, kitob o‘qing, mutaxassislikni puxta egallang, tartib va intizomni odat qiling. Har qanday sohada, ayniqsa, tibbiyotda jamoaga kerak bo‘ladigan sifatlar shu.

Chet elga chiqsangiz ham, chiqmasangiz ham, o‘zingizni yo‘qotmang. Vatanga, millatga muhabbat faqat gap emas: halollik, madaniyat, mehnat, odobda aks etadi. Siz shu vatanning fuqarosi, shu millatning vakili sifatida mas’uliyatni his etishingiz bilan namoyon bo‘ladi. Qayerda bo‘lsangiz ham, o‘zbek degan nom faqat yaxshi ma’noda tilga olinishiga sababchi bo‘ling.

Oydin YO‘LDOSHEVA suhbatlashdi.

“SIZLARNI YUZ YIL KUTDIK!”

Boshlanishi 1-sahifada.

Biroq rasmiy xizmat safari bilan borilgan taqdirida, ko‘rilgan va o‘rganilgan tajribalarni yoritib berish ma’naviy va kasbiy burch hisoblanadi. Chunki har qanday xalqaro safar turli muzokaralar, rasmiy muloqotlar, yozishmalar, tashkiliy ishlar va puxta tayyorgarlikni talab etadi. Bunday safarlarning amalga oshishida rahbarlar va mas’ul xodimlarning katta mehnati va fidoyiligi yotadi.

Men ham Fan va texnologiyalar universiteti professor-o‘qituvchilari safida yaqinda Turkiya Respublikasida malaka oshirish dasturida ishtirok etdim. Safar davomida Anqara, Trabzon, Rize va Istanbul shaharlarida bo‘lish nasib etdi.

Fan va texnologiyalar universitetida ayni paytda 18 ta bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va 6 ta magistratura mutaxassisligi mavjud. Bugungi kunda universitet Vashington davlat universiteti, Pekin texnologiya instituti va Dalyan texnologiya universiteti, Rejep Tayyip Erdog‘an universiteti kabi ko‘plab xorij oliy o‘quv dargohlari bilan samarali hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ygan.

2025-yil oktyabr oyida Turkiyaning Rejep Tayyip Erdog‘an universiteti delegatsiyasi universitetimizga tashrif buyurgan va ikki muassasa o‘rtasida hamkorlik memorandumi imzolangan edi. Unga muvofiq, bir guruh talabalarimiz ushbu universitetda tahsil olib boshlagan bo‘lsa, yaqinda professor-o‘qituvchilar jamoasi mazkur muassasada malaka oshirish kurslarida ishtirok etdik.

Universitet Turkiyaning shimoli-sharqiy qismida, Qora dengiz sohilida joylashgan Rize shahrida faoliyat yuritadi. Mamlakatda “choy poytaxti” sifatida tanilgan Rize shahri



yashil tepaliklar va keng choy plantatsiyalari bilan o‘ralgan. Tabiiy muhiti, sernam iqlimi, tog‘li landshaftlari, sharsharalari, Kachkar milliy bog‘i kabi noyob tabiat maskanlari bilan Turkiyaning eng go‘zal hududlaridan biri sanaladi. So‘nggi yillarda shahar jadal rivojlanib, kengayib, obodonlashib bormoqda va zamonaviy sayyohlik markazlaridan biriga aylangan. Rize shahri Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘anning ota yurti hisoblanadi. Shu bois, rizeliklar bu bilan haqli ravishda faxrlanadilar.

Rejep Tayyip Erdog‘an universiteti ilk davrda Trabzondagi Qora dengiz texnika universitetining filiali sifatida tashkil etilgan bo‘lsa, keyinchalik alohida faoliyat yuritib boshlagan. Universitetda muhandislik, tabiiy fanlar, san’at, sahna san’ati va dizayn, qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi, buxgalteriya

hisobi va moliya, elektrotexnika va elektron muhandislik, qurilish muhandisligi, siyosat va xalqaro tadqiqotlar, tillar, adabiyot va tilshunoslik, fizika, huquqshunoslik, astronomiya, arxitektura, mashinasozlik va aerokosmik muhandislik, kimyo, tibbiyot va stomatologiya, geologiya, ekologiya, yer va okean haqidagi fanlar, informatika, kimyo muhandisligi, ta’lim, tarix, falsafa va ilohiyot, matematika va statistika, iqtisod va ekonometrika, sog‘liqni saqlash fanlari, sport fani hamda biznes va menejment kabi ko‘plab sohalar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanadi. Universitetda zamonaviy o‘quv binolari, talabalar turar-joylari, madaniyat va sport markazlari, kutubxonalar faoliyat ko‘rsatadi. Professor-o‘qituvchilar uchun alohida zamonaviy turar-joy majmualari barpo etilgan. Bu turar-joylar qulayligi va jihozlanishi

jihatidan oliymaqom mehmonxonalaridan deyarli farq qilmaydi.

Universitet huzuridagi O‘qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash xalqaro markazida “Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va kasbiy rivojlanish” hamda “O‘qituvchilarni o‘qitish” dasturlari asosida 144 soatlik kurslar tashkil etildi. Mashg‘ulotlar qat’iy reja va jadval asosida, yuqori professional darajada olib borildi.

Universitetning Ziroat fakulteti dekani, professor Mustafa Aqbulut o‘zbek muallimlarini fakultet faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida ekskursiyaga taklif etdi. Dekan qabulxonasida bo‘lib o‘tgan uchrashuv chog‘ida fakultetning xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan ilmiy hamkorlik aloqalari va qo‘shma tadqiqot loyihalari haqida so‘z bordi. Mustafa Aqbulut o‘zbek tilshunoslari ishtirokida Ziroat fakulteti o‘qituvchilari va talabalar uchun maxsus turkcha-o‘zbekcha botanika lug‘ati yaratish maqsadga muvofiq bo‘lishini ta’kidladi. Bu taklif asosida ikki oliy ta’lim muassasasi olimlari hamkorligida shartnoma tuzildi.

Turkiya Yoshlar va sport vazirligining Rize viloyati bo‘limi tomonidan tashkil etilgan “O‘zbekiston kunlari” tadbiri universitetda o‘ziga xos do‘stlik va madaniyat festivaliga aylanib ketdi. Unga turli o‘lkalardan kelgan talabalar ham mamnuniyat bilan tashrif buyurdi. Ustozlar so‘zga chiqib, o‘zbek va turk xalqlari o‘rtasidagi tarixiy do‘stlik, madaniy yaqinlik va hamkorlik aloqalari bundan buyon ham mustahkamlanib borishini ta’kidladilar. O‘zbekistondan kelgan talabalarga esdalik sovg‘alari va kitoblar taqdim etildi.

Rize shahridan 25 chaqirim narida Chayeli shaharchasi bor. Universitet professori Ibrohim Hayri Qo‘g‘uo‘g‘li o‘zbekistonliklarni



Ikromiddin OSTONAQULOV, tarix fanlari doktori

Chayelidagi o‘z uyida mehmon qildi. Mezbon o‘zbek-turk munosabatlari tarixiga ishora qilib, “Biz sizlarni yuz yil kutdik!” deya lutf qildi. Xonadon deyarli kichik muzeyga aylantirilgan. Bu yerda olimning boy kutubxonasi, dunyo bo‘ylab safarlari davomida to‘plagan turli tarixiy buyumlari va esdaliklari saqlanadi. Vatanparvar shoir Ibrohim Hayri Qo‘g‘uo‘g‘li o‘z mehmonlariga 2013-yili nashr etilgan “Sevgining kuchi” kitobidan taqdim qildi. Ayni kunlarda shoir she’rlari o‘zbek tiliga tarjima qilinmoqda. “O‘zbekiston kunlari” tadbirida professor Vali So‘me ham “O‘tashda ochilgan gullar” nomli she’riy to‘plamini sovg‘a qilgan edi. Ushbu kitobdan ham ko‘plab she’rlar o‘zbek tiliga tarjima qilinadi.

Qisqa muddatli uchrashuvlar davomida bir qator yaqin va uzoq muddatli ilmiy loyihalar tuzishga erishildi. Jumladan, universitet prorektori Nabi Gumush bilan tuzilgan kelishuvga ko‘ra, o‘zbek va turk xalqlarining ma’naviy tarixiga oid ikki tilda kitob tayyorlash, o‘zbek olimlari kelasi o‘quv yilida bu universitetda o‘zbek tili va adabiyoti fanidan ma’ruza o‘qishlari, turkiy qo‘lyozmalar bo‘yicha matnshunoslik ishlarini amalga oshirishlari ko‘zda tutildi.

Safarimiz shu tariqa yangi bilimlar, xalqaro tajriba, ilmiy va madaniy almashinuvlarga boy tarzda o‘tdi.



SHE'R VA SHAXSIYAT

Boshlanishi 1-sahifada.

"Do'rmon" ijod uyi hududidagi xonadonda Abdulla Oripov 1996-yildan vafotiga qadar yashab, ijod qildi. Uning bir qismi bo'lgan muzeyda shoirning qo'lyozmalari, boy kutubxonasi, shaxsiy buyumlari joy olganki, har biridan shoirning nafasi kelib turadi.

Shu ma'noda xalqimizga, xususan, yosh avlodga O'zbekiston Qahramoni, Davlat madhiyasi muallifi yashagan, ijod qilgan xonadonni ko'rsatish ehtiyoji yildan yilga ortib borayotgan edi. Endi Do'rmonga kelgan kishi borki, Abdulla Oripov bilan ma'naviy bog'liqlik his qiladi. Ushbu uymuzey bunga to'la imkon beradi.

Biz ba'zan oldimizdan oqqan daryolarning qadriga yetmaymiz. Tarmoqlarda, davralarda Abdulla Qahhorning "Gurjiston madaniyat tarixiga oid bo'lsa, o'lgan otning taqasini ham baxmalga qadab osib qo'yishar ekan" degan gapini yoki Aleksandr Pushkin xolasinikiga borganda o'tirgan kursini muzeyda saqlanishi haqidagi ma'lumotni biryoz qadrlama, ba'zan o'z xalqimizni beparvolikda, tarixiy xotiraga nisbatan loqaydlikda ayblash uchun keltiramiz.

Shu ma'noda muzeyning tashkil topishida Abdulla Oripovning turmush o'rtog'i Hanifa ayaning xizmatlarini ta'kidlash joiz. Shoirning noyob qo'lyozmalarini asrabavaylab, hatto, e'lon qilinmagan she'rlarni ham saqlab bugunga yetkazib kelish ham o'ziga xos ma'naviy jasorat. Adibning ayoliga "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni berilgani ham bejiz emas.

Ushbu muzey xalqimizga, adabiyot shaydolariga, yosh ijodkorlar va tadqiqotchilarga muborak bo'lsin!

TAHRIRIYAT

Abdulla Oripov she'riyat ostonasiga qadam qo'ygandayoq ijodini ruhning mutlaq hurligi darajasiga ko'tardi. Uning uchun So'z inson botinidagi asl "men"ning nafsoniy istilolardan xalos bo'lish jarayonidir. "Sozim" she'ridagi mashhur iqrori shunchaki balandparvozlik bo'lmay, balki ruhiy mustaqillik haqidagi qat'iy va murosasiz xitobnomadir:

**Men shoirman,
Istasangiz shu,
O'zimizni erush sozimiz,
Birovlardan olmadim tuyg'u,
O'zimga ham bermam ovozim.**

Misralarda zamon va mafkura tazyiqidan baland turuvchi, o'z fitratini anglagan shaxsning mag'rur ovozi jaranglaydi. "Birovlardan olmaslik" ruhiy qarantimon har qanday ko'rinishga qarshi ko'tarilgan isyonidir. Zero, o'zgalarning tuyg'usi yoki dunyoqarashi ijargaga olingan uyga o'xshaydi — unda na haqiqiy harorat, na shaxsning asl qiyofasi namoyon bo'ladi. Shoir ko'nglini begona hissiyotlar makoniga aylantirishdan tiyilib, ruhiy sarhadlarini "mijg'ov va pastkash gaplar"dan, maydakash hasadlardan qat'iyat bilan himoya qiladi.

Shoirning ma'naviy hurligi ijodiy "men"ni Tangri bergan iste'dod tarozisida tortishida yaqqol ko'rinadi. U san'atni nafs bozoridan, arzon shuhrat va betayin maqtovlardan baland tutadi:

**Kerak bo'lsa, amr etsa yurak,
Keltiruman umringa imon.
Mening uchun na ta'zim kerak,
Na holvaytir kabi shuhrat-shon.**

Abdulla Oripov falsafasida shaxs o'zligidan tonmagan, ichki olamini "istilo" qildirmagan taqdiridagina, millatning chinakam dardkashiga aylanishi mumkin. U "mayda gapni ko'tarmaydigan" she'riyat olamini buyuk shoir Alisher Navoiy ruhiyatiga bog'laydi. "O'z-o'zimga she'r o'qiyman men" deyishi shaxsiyatning o'z vijdoni oldidagi eng oliy va xolis hisobotidir. Bu bosqichda ijodiy "Men" badiiy ifoda vositasi bo'lishdan o'tib, shaxsning ma'naviy tiriklik mantig'i sifatida gavdalanadi. So'zning imon darajasiga ko'tarilishi shaxsiyatning muhit vasvasalari ustidan qozongan ilk va eng muhim zafaridir.

Abdulla Oripov Shaxs olamiga nazar tashlarkan, insonning ma'naviy suratini muayyan bir zamon yoki siyosiy maslak doirasida chegaralab qo'yamaydi. Shoir odamzod tabiatiga xos azaliy nuqtalar va ruhiy zavor nuqtalarini bashariyat tarixining teran qatlamlaridan izlaydi. Uning tarixiy nigohi insoniyatning "qonli changi" orasidan shaxsning ruhiy daxsizligiga rxana soluvchi eng xatarli illatni — nafs va xudbinlikning ibtidoiy ko'rinishlarini fosh etadi. "Yuzma-yuz" dostonidagi mamont ovi sahnasi ma'naviy tanazzul boshlangan damlarning badiiy tashxisiga aylanaadi:

**O'sha kun buzildi azaliy udum,
Uni inson o'zi buzib tashladi.
Kunduzgi oshkora o'g'ri larday u
O'ljasi uy-uyga torta boshladi.**

"O'ljani uy-uyga tortish" — el-ulus orasidagi azaliy muvozanatning shaxsiy manfaatlar foydasiga buzilishi va shaxsning o'z ichki "Men"ni nafs izmiga topshirishidir. Ma'naviy hurlik — mana shu ibtidoiy nafs hukmronligidan baland turish, "o'lja" ilinjida ruhiy ozodlikni qurbon qilmaslik demak. Shoir uqtirishicha, xudbinlik tantana qilgan joyda shaxsiyat fojiasi muqarrardir. Zero, inson o'z botinidagi ibtidoiy hirsni jilovlay olmasa, u har qanday zamonaviy va yaltiroq qiyofada ham ma'naviy tutqun bo'lib qolaveradi.

Shaxsiyatning ma'naviy mustaqilligi uning tarixiy xotirasi bilan tirikdir. Shoir "Ehtiyoj farzandi" maqolasida ta'kidlaganidek, ijod — ruhiy tashnalk va cheksiz ehtiyoj mahsuli. Ammo bu ehtiyoj moddiy "o'lja"ga bo'yin egmay, balki ruhiy sofflikka yo'naltirilgan bo'lishi shart. Abdulla Oripovning tarixiy-falsafiy muhokadalarda shaxsning zafari asrlar osha davom etib kelayotgan xudbinlik zanjirini vijdon sofligi bilan uza olishida namoyon bo'ladi. Shoir insonni o'z tarixiy ildizlariga mas'ul bo'lishga, ajdodlar adashgan soxta yo'llardan So'z va Imon qudrati orqali qaytishga chorlaydi.

Abdulla Oripov shaxsiyatining ma'naviy hurligi uning olomon izmiga bo'yusnmasligi va ommaviy loqaydlik jarayoniga nisbatan shaxs mas'uliyatini qo'ya olishi bilan o'chanadi. Olomon — shaxsning siyqalashgan, vijdonan mosuvo etilgan va javobgarlik tuyg'usini ko'pchilik bag'riga yashirgan qiyofasidir. "Olomonga" she'rida bu ruhiy qatlam ayovsiz taftish etiladi:

Munisjon HAKIMOV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori



**Nimasan? Qandayin sehirli kuchsan?
Nechun tomoshaga burchalar o'chsan?
Qarshingda hasratli o'yga tolamon,
Qachon xalq bo'lasan, ey sen, olomon?!**

"Tomoshabinlik" shaxsiyatning zavolidir. Olomon uchun fojia ham, mardlik ham shunchaki zavqlanish vositasiga aylanadi. Ijodkorning ma'naviy erkinligini bosh mezon qilib oladi. Kimki, o'z fikri va imonini olomonning vaqtinchalik hayqiriqlariga almasha, u shaxs sifatida allaqachon halok bo'lgandir.

Shoir o'z maqolalarida ta'kidlaganidek, "did — bu iste'dod" demak, olomon didiga moslashish ijodiy shaxsiyatning o'z-o'ziga xiyonatidir. Shoir va shaxsiyat yaxlitligi aynan mana shu ijtimoiy "to'da" ichida o'zlikni saqlab qolish va So'zning ilohiy omonatini soxta olqishlarga fido etmaslikda namoyon bo'ladi. Bu mustaqillik shoira vijdon erkini beradi.

Abdulla Oripov shaxsiyatining ma'naviy quvvati uning o'z ildizlarini qay darajada his qilishi va ajdodlar ruhi oldidagi hisobdorligi bilan belgilanadi. Shoir uchun shaxs — tarixdan uzilgan tasodifiy hodisa emas, balki asrlar silsilasida toblangan ma'naviy vorislikning tirik davomidir. Shoirga berilgan "ma'naviy pasport" — qondagi "qilich zangi" va "ajdodlar ohi"dir. Ma'naviy hurlik ajdodlar armoni va shijoatini bugungi "men"ga singdirishda namoyon bo'ladi. Shaxsning mustaqilligi uning tarixiy xotirasi bilan tirik. Agar inson o'z irsiyatidagi buyuklikni va fojialarni anglamasa, u o'zlikdan mahrum, ruhsiz bir jismga aylanaadi.

"Ehtiyoj farzandi" maqolasida muallif jahon adabiyoti va buyuk siymolar ijodini o'rganish insonni "o'z-o'ziga mahliyo bo'lishdan" qutqarishi va haqiqiy vorislik tuyg'usini uyg'otishi haqida fikr yuritadi.

Abdulla Oripov ijodida ruhning eng oliy istiqlol bandalikning haqiqiy maqomini topish va nafs sanamlaridan butkul voz kechishdir. Shoir "Hikmat sadolari" turkumida shaxsiyatning ilohiy ildizlariga yuz buradi. Shoirning ma'naviy hurligi uning samimiy tavbasida namoyon bo'ladi. Shaxs o'z xatolarini tan ola bilgan va "ikki paysalik savob" ilinjida o'zimga madad qo'lini cho'zgan paytdagina tom ma'noda ozoddir. "Ona nigohi" she'ridagi:

**Yomon nazarlardan toliqdi ruhmat,
Onam nigohini ko'rsating, hazrat, —**

degan iltijo shunchaki farzandlik sog'inchi emas, balki dunyoning yovuz va makkor nazarlaridan forig' bo'lib, ma'naviy sofflika qaytish istagidir.

Muallif "Men anglab yetgan falsafa" va "Sarob" she'rlarida dunyoning mohiyati soxtalashib borayotganidan bahs etadi. Bozor — bu faqat oldi-sotdi makoni emas, balki insoniy fazilatlar, vijdon va diyonat kimoshdi savdosiga qo'yilgan ma'naviy tanazzul ramzidir. Shoir bu bozorda shaxs bo'lib qolishning naqadar mushkulligini, atrofi o'rab turgan "yaltiroq aldoqlar" insonni o'zlikdan uzoqlashtirishini kuyunib yozadi.

**Hamma narsa sotilar bunda,
Hatto vijdon, hatto e'tiqod...**

Bu satrlar shunchaki ijtimoiy shikoyat emas, balki shaxsiyatning ma'naviy erkinligi xavf ostida qolganidan berilgan ogohlantirishdir.

Abdulla Oripov ijodidagi Shoir va Shaxsiyat konsepsiyasi — bu ruhning foni dunyo omonatlaridan baland turib, boqiylik sari qilgan izchil safaridir. "Ruhim" she'ridagi murojaat shaxsiyatning o'z-o'ziga bergan eng oliy bahosidir:

**Ruhim, sen vujudning g'amini yema,
U sening manziling — omonat qo'noq.**

Bu yerda ma'naviy mustaqillik o'z cho'qqisiga chiqadi — shaxs o'z jismoniy chegaralarini yengib o'tib, ilohiy hurlikka erishadi. Abdulla Oripov talqinida shaxsiyat — bu har qanday ijtimoiy zulm, hasad bo'ronlari yoki bozor taloto'plari qarshisida parchalanmaydigan "kamalak"dir. Kamalakni parchalab, bo'laklab bo'lmaydi, chunki u moddiyatdan emas, nurdan yaralgan. Ijodiy "men"ning ma'naviy zafari ham So'zning mana shunday Nur holatiga ko'tarilishida namoyon bo'ladi. Shu tariqa, Abdulla Oripov she'riyati — ruhning istiqlol deklaratsiyasi sifatida namoyon bo'ladi.

Abdulla Oripov yaratgan ijodiy maktab bizni ana shunday ruhiy balandlikka, Shaxs bo'lib yashash va Shaxs bo'lib qolish zahmatiga chorlayaveradi. Ruhning zafari esa So'zning boqiyligida va Imonning butunligidadir.

HIKOYA

Og'zingga qon kelsayam, dushman oldida tupurma.
HIKMAT.

O'g'lim JAMSHIDga

Men rahmsiz emasman. Afg'onidagi bosmachilargayam munosabatim aniq edi. Ammo, o'sha yerda xizmat qilayotganimda bir voqea sodir bo'ldiki, hali-hamon uning mag'zini chaqolmas edim.

Biz krepostda turardik. Toshdan yasalgan qo'rg'onda. Devoridan odamning boshi ko'rinadi. Devor ortidagi maydonga vertolyotlar kelib qo'nardi, biz kechasi ularni qo'riqlardik. Kunduzi har xil topshiriqlarni bajarardik. Goho kechasi ham bosmachilar yaqin kelgani yoki biron qishloqni bosganini eshitasak, boraverardik. Egnimizda o'q o'tmaydigan jilet, qo'limizda avtomat. Komandir buyursa, bas...

Yonimizda bitta o'zbek qishlog'i bor edi. Juda xarob yashaydi u yerning xalqi. Odamlarini ko'rsangiz, achinib ketasiz. Kir-chir, qo'llari qadoq... Qishloqning o'rtasida do'konlar bor. O'limni o'ylamasak ham, baribir bo'yinga olib qo'ygandik. Bilasizmi, juda qo'rqmas odam ham, juda qo'rqoq odam ham tez o'lar ekan: bitta namanganlik o'rtog'im bor edi. Kelganida mayingina yigit edi. Bo'yi mendan ikki qarichlar baland. Olti oy o'tmasdan bronejilet kiymasdan jangga kiradigan bo'ldi. O'limni sira o'ylamas edi. Bosmachilarning snayperlari unga qasdlashgan ekan. Buni keyin bildik... Bir kuni ikkalamiz krepostning yonida — men cho'zilib yotgandim, u toshda o'tirgandi. Ro'paramizda baland tog'-toshlar, g'adir-budur. Daraxt yo'q. O'rtog'imga o'q tekkani bildim... Eshitdim. O'qning ovozi — eshitganim yo'q; mana shu yeridan — qoq peshonasidan tekkan ekan: chinqirib yubordi. Joyidan sapchib ketdi. Orqaga yiqildi. Men ham o'rmlab, tosh panasiga o'tdim. U tipirchilayapti. To'qqarab tursam, bir toshning orqasidan sallali kishi chiqdi. Bo'ynini cho'zib bu yo'qqa qaray boshladi. O'likni ko'rmoqchi-da. Kallasini yo'quloq-burnini kesib ketadi. Yo avtomatini olib ketadi. Olti sallalini. Surilib tushib keldi. Ustiga borib, yana otdim. Yo'q... tushguncha o'lib bo'lgan ekan.

Miltig'ini olib keldim. "Bur" degan miltiq ekan. Inglizlarniki. Bizning snayper miltig'i imiz bilan teng turadi. He, keyin ko'p bolalar o'sha miltiq bilan rasimga tushishdi.

Xullas, juda qo'rqmas odam ham tez o'lar ekan.

Men sizga boshqa narsani hikoya qilmoqchi edim. Yaxshiyam o'rtog'imning o'limini aytdim.

Ana o'shanda men birinchi marta yig'ladim. Yig'ladim-u, shundan keyin boshqa bironing yig'laganini ko'rsam, toqat qilolmaydigan bo'lib qoldim.

Bitta yigit to'rtinchi darajali bosh oshpaz ekan. Vzvodga kelishi bilan: "Men oshpaz bo'laman", deb turib oldi. O'zimizda oshpaz bor. Komandir: "Yo'q", deydi. U bo'lsa... yig'laydi. Shunda bir-ikkita ruslar ham undan kulishdi.

U bir haftadan keyin birinchi jangda o'ldi.

Sizga aytmoqchi bo'lgan hikoyam yonimizdagi qishloqlik bir o'zbek bola haqida.

O'n besh yoshda edi. Lekin... yirikkina edi. Gilam do'ppi kiyib yurardi. Onasi, to'rtta ukasi bor ekan.

O'sha bola menga bitta kuchukvachcha olib kelib bergandi. Qozzoqi itga o'xshaydi. Rasmiyam bor. Mana, oyoqlariga qarang, qanday yo'g'on... E, biz qishloqlar bilan yaqin bo'lib qolgandik!

Bir kuni bosmachilar yaqin kelganini eshitdik. Jo'nadik. Oldinda saporlar. Orqada biz. Dux ham ergashdi (men unga Dux deb o'to'ygan edim). Ha-ha, bosmachilarniyam ko'pincha Dux deb atashardi u yoqda. Ular — tog' odamlari. Qo'lga tushirish qiyin. O'ldirdim deb ustiga borsangiz, sizni otib qo'yadi...

Ha-ha, Dux ham bizga ergashdi. It — it-da. Minani bosib qo'yishi mumkin. Yo'lda bir qishmdan o'tayotgandik, uni qoldirdim. Bir kladvokaga qamashdi.

Biz ketgandan keyin shu qishmi tekshirishga komissiya kepti. Bitta kapitlan haligi omonat uyuchaniyam ochiripti. Dux unga tashlangan ekan, u to'pponchadan otipti. Oyog'iga tegipti. Orqamizdan oqsab yetib bordi. Keyin... uni Hakim olib ketdi.

O'sha bola da... Ba'zan men bilan gaplashib o'tirardi. Nima? Qishloqqa oralagan bosmachilar haqidayam xabar berardi. Yo'l ko'rsatardi ba'zan.

— Sizlar O'zbekistondan kelib qolgan o'zbeklarmi? — deb so'rasam, dabburustdan jahli chiqardi.

— Mumkin sizlar bizdan borib qolgan o'zbeklar! — derdi.

Men ichimdan quvonardim. Bilasizmi, o'zbek ekaningni bu yerda — Vatanda qadriga yetmaysan, eslamaysan ham. Ammo chetda... bilinar ekan. Birinchidan, tezda topishasan. Qaysi yurtidan ekanini so'raysan. Suhbatlashasan. Tiling bir, urf-odatig bir... U yerda judayam tez yaqinlashib, jigar bo'lib ketasan ekan. So'ngra men bir narsani ko'rdim, aniqrog'i, ishonchim: bizning o'zbek bolalari yaxshi urushar ekan! Mana munday kichkinasiyam tezda yuragini bosib oladi. Qarabsizki, avtomatni ko'tarib ketyapti. To'g'ri, bizdan geroylar kam chiqdi. Lekin geroylik berish bizning qo'limizda emas edi...

Nima? U yerdagi talay bosmachilar ham — menimcha, o'zbeklar edi.

Xullas, haligi afg'onlik o'zbek bolayam bizga bir ukadek bo'lib qoldi.

Suhbatimiz endi... U ko'pincha Soyuz haqida so'rardi. "Sizlar necha jin oilada?" deb so'rardi. Tag'in, bizni yaxshi ko'rardi-yu, lekin qandaydir, nima desam ekan, hadiksirab qarardi. U bizga araqligani borganidayam qandaydir qo'rqib, ham jirkanib borardi. Yo'q, ularda suxoy zakoni!

Bir oqshom qishloq yaqinida bosmachilar paydo bo'lganini eshitdik. Televizor ko'rib o'tirgan edik. Komandir buyurdi. Ketdik... O'sha joyga yaqinlashgach, raketa otdik. Haligiday osmonda to'xtab turadigan raketadan. Mushakni kichkina

Shukur XOLMIRZAYEV



parashut tutib turadi. Uch-to'rt minut atrof kunduz kungidek yorishib turadi. Shunda otamiz!

Ular ko'pchilik ekan. Otib boryapmiz, otyapmiz. Oxiri bittasi yaralangan ekan, uni tashlab qochishdi. Oldin borganlar uni tutib kelishdi. Qarasam, haligi Hakim...

Birdan burilib ketdim.

Qo'rg'onga qaytdik. Bu yer yop-yorug'. Projektorlar ko'p-da. Komandir ham shtabdan chiqib keldi. Uning yaqin do'stlariyam. Bola o'rtada zo'rg'a qiyshayib turibdi: o'ng oyog'idan qon sizib tushyapti. Meni ko'r-di-yu, birdan yig'lamoqqa tushdi-ku!

— Aka, meni o'ldirasizlar. O'ldirmanglar. Ular meni olib ketishayotgan edi...

— O'lmaysan, o'lmaysan, — dedim.

— Yo'q. O'ldirasizlar!
— Hakim?

— Sizlar asir tushganni o'ldirasizlar!

— Yo'q, dedim-ku! Seni mana bular ham taniydi...

— Yo'q, tanisayam o'ldiradi.

Xo'p, gapiku, mayli... Yig'laganini aytmaysizmi? Chinqirib yig'layapti deng!

O'lay agar, toqatim qolmadi. Qarasam, ba'zi o'risslar kulishyapti undan. Shunda, ishonasizmi, kishida milliy tuyg'u deysizmi, qandaydir or-nomus deysizmi, g'alati bir tuyg'ular uyg'onib ketar ekan: o'sha boladan emas, o'zimdanda kulishayotgandek bo'ldi. Xudo haqqi! Yonimizdagi o'zbek bolalar ham unga yalima ketishdi:

— Yig'lama. O'ldirmaymiz...
— O'ldirasizlar... Mening aybim yo'q!

Qiziq gap-a? Uning aybi bor-yo'qligini biz, xorijdan kelgan askarlar ajrim qilar ekanmiz.

— Qanday qilib ularning qo'lga tushipti? — deb so'radi shunda komandir.

Men undan so'radim:
— Qanday qilib ularning qo'lga tushding? Ana shunda bola paqir yig'idan to'xtadi:

— Men sizlarni yomon ko'raman, — dedi.
— Sekin, ahmoq.

— Sizlar — bosqinchi... Nega bizning yurtga keldinglar? Tinchgina yashayotib edik...

— U yog'ini hukumatigandan so'ra, — dedim. — Tushudingmi gapimni?

— Hukumatim sotqin, — dedi.
Tavba.

Kimdir shunda bu gapni komandirga tarjima qildi. Bunday paytda hukm qat'iy bo'ladi...

— Hakim endi o'lasan, — dedim.
— Bilardim-da, xunxo'rlar! — deb yana uvvos solib yig'lay boshladi.

— Yig'lama, — deyman, — Mard bo'lsang, oxirigacha mard bo'l, ukajon. Yig'lab nima qilasan?

Bolalar yana qo'shilishdi:
— Foydasi yo'q. Yoshlik qilma... O'lim hammaning boshida bor... uka... Qo'rqma.

Shunda u battarroq yig'lasa bo'ladim! Qarasam, qishloq tomonda ham yig'i bo'lyapti. Chamasi, bolani ovozidan tanishgan. Lekin bizga yaqin kelisholmaydi.

— Uka, yig'lamasang, seni olib qolaman, — debman shunda. — Mayli, otilib ketsam ham... Xo'p degin. Seni qamab qo'yaman. Kechasi chiqarib yuboraman.

— Yalgon! Yalgon! Sizlar qonxo'r! Sizlar — o'zbek emas! — deb tag'in baqirishga tushdi.

Ha. O'zim avtomatni bo'shatdim. Shunda... yana tavba deyman, Dux o'lgur allaqayoqdan kelib, menga tashlab qoldi-ku! Mana shu tomog'imga intiladi deng. Uniyam otdim.

Qabrisoniyam shunday yaqinimizda edi... Xotin, qiz, kampir degani shu kuni kechgacha mozorda o'tirib yig'lashdi. Men shunday holatga tushdimki, o'zinni o'zim otib qo'yishimga oz qoldi. Kechqurun ular charchab uylariga ketishdi.

Biz ham yotdik. Qiziq, ko'zimni yumsam, qaytga Hakimning qiyshayganicha dod solib yig'layotgani ham, Duxning bo'ynimga sapchigani ham ko'z oldimga keladi. Urug'larning bo'zlab yig'laganlari eshitiladi.

Oxiri turib o'tirdim. Yigitlar uyg'oq, nasha chekishayotgan ekan.

— Mengayam o'rab beringlar, — dedim.
— Chekmas edingiz-ku?

— Shoyad uxlasam... Ey, bolalar, "bizlar — bosqinchi"mi, a? Bolalar miq etmadi.
— Nahotki Hakim haq bo'lsa? Yana jimjittik.

...O'n yillardan keyin ularning "dux'lari — bosmachi emas, biz — Sovet askarlari — haqiqiy bosmachi ekanimizni tushundim. Biz g'afatda qolgan avlod ekanmiz. Ana buning uchun yig'lasa arziydi.



MILLIY KINO TAYANCHI

Boshlanishi 1-sahifada.

Shu lahzalarda inson o'zini oddiy kuzatuvchi emas, voqealar ichida yashab turgan ishtirokchi kabi his etadi: quvonadi, iztirob chekadi, ko'ziga yosh oladi. Sahnadagi qahramonlar bilan birga o'ylaydi, ular bilan birga qiynaladi. Shu tarzda tomoshabin o'tmishni kuzatmayotgandek, balki tirik hayotni his qilayotgandek bo'ladi. Uning qalbida kechmish va bugun bir nuqtada tutashadi. Tarixiy shaxslar kitob sahifalaridagi nomlar emas, uning yonida turgan tirik insonlar kabi namoyon bo'ladi.

XX asrda faylasuf va adabiyotshunos olim M.M.Baxtin bu hodisani "yozuvchi – qahramon – kitobxon" muloqoti sifatida izohlab, san'atga yangi nazariy tushuncha kiritgan edi. Uning fikricha, haqiqiy san'at asarida ijodkor, asar qahramoni va uni qabul qilayotgan inson o'rtasida tirik ma'naviy muloqot yuzaga keladi. Shiller va Gyote davrida kino san'ati hali mavjud emas edi. Ammo ular ta'riflagan badiiy ta'sir qudrati



UYG'ONISH

Har qanday millatning ma'naviy qiyofasi, avvalo, uning tarixiga munosabatida namoyon bo'ladi. Chunki tarix faqat o'tmish sahifalari emas, xalq xotirasi, ruhi va milliy o'zligini belgilaydigan ma'naviy poydevor hamdir. Uni asrash, xolis talqin qilish va kelajak avlodga yetkazish esa davlat siyosati darajasida yetuk tafakkur va uzoqni ko'ra bilishni talab etadi.

Keyingi yillarda kinematografiyaga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani ana shu haqiqatning amaliy ifodasidir. Davlatimiz rahbari kino ijodkorlari bilan uchrashuvda bunday degan edi: "So'nggi yillarda milliy kinomiz qayta "uyg'ondi", desak, to'g'ri bo'ladi. Yuqori saviyali, zamonaviy sifatli filmlar paydo bo'ldi. Buning uchun sizlarga minnatdorlik bildiraman. Shu bilan birga, kinematografiyani rivojlantirish uchun yana nimalar qilishimiz kerak, degan savol meni o'ylantiradi. Agar tariximizni dunyoga tarannum etmoqchi bo'lsak, xalqimizning milliy g'ururini ko'tarmoqchi bo'lsak, buni birinchi navbatda kino yordamida amalga oshirishimiz kerak".

Bu fikrlar milliy kinematografiyani strategik ahamiyatga ega soha sifatida rivojlantirish, tarixiy xotirani ekran orqali jonlantirish va milliy g'ururni mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosatining mazmunini ochib beradi. Bugun kinoga madaniy hodisa ekani barobarida xalq xotirasi va ma'naviy merosni asrovchi muhim ijtimoiy-ma'rifiy vosita sifatida qaralmoqda. Ana shu siyosiy irodaning amaliy ifodasi o'laroq Prezident qarori qabul qilinib, 2024–2027-yillarga mo'ljallangan "Tirik tarix" filmlar turkumini yaratish dasturi tasdiqlandi. Mazkur dastur doirasida jami 54 ta film – 21 ta badiiy va 33 ta badiiy-publististik kinoasarlarni yaratish rejalashtirilgan.

Bu loyiha yuzlab ssenarist, rejissyor, tarixchi va tadqiqotchilar ishtirokida yaratiladigan ulkan ma'naviy xazina hisoblanadi. Dasturining asosiy maqsadi tarixni ilmiy xolislik va badiiy yetuklik asosida, inson taqdiri orqali hayotiy tarzda ochib berishdan iborat. Haqiqiy san'at asari tomoshabinni shunchaki kuzatuvchi qilib qo'ymaydi – uni o'ylashga, xulosa chiqarishga va o'z o'tmishi bilan faxrlanishga undaydi. Shu ma'noda, tarixiy filmlar yosh avlodning milliy o'zligini anglashida, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda "Tirik tarix" megaloyihasi doirasida dunyo amaliyotida kam uchraydigan yirik davlat kinodasturining barcha mexanizmlari ishga tushirilgan. Hozirga qadar bir necha film to'liq yakunlanib, tomoshabinlar e'tiboriga taqdim etildi. Qator loyihalar ikki bosqichli tanlov asosida saralanib, ishlab chiqarish jarayoniga kiritildi. Ayni paytda filmlar turli bosqichlarda – ssenariy tayyorlash, tasvirga olishga tayyorlanib, suratga olish va postprodakshn jarayonlarida davom etmoqda. Joriy yilning dastlabki oylarida dasturda nazarda tutilgan yana boshqa loyihalar bo'yicha ham tanlovlari o'tkazilib, ijodiy jamoalar shakllantirildi.

EKRANDA JONLANGAN TARIX

So'nggi ikki yil davomida yaratilgan "Bahodir Yalang'to'sh", "Ajiniyoz", "Maxtumquli Firog'iy", "Ulug' Amir va donna Mariya" kabi filmlar milliy kinematografiyamizda tarixiy mavzularga yangicha yondashuv shakllanayotganini ko'rsatdi. Bu asarlarda tarix quruq sanalar yoki rasmiy bayonlar emas, inson taqdiri, shaxs va millat munosabatlari, Vatanga sadoqat va ma'naviy mas'uliyat kabi murakkab tanlovlar orqali ochib beriladi. Mazkur filmlarda tarixiy shaxslar o'z zamonasining og'ir yukini ko'targan, iztirob chekkan va muhim qarorlar qabul qilgan tirik insonlar sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa tomoshabinga tarixni yanada yaqin va ta'sirchan tarzda anglash imkonini beradi.

Xususan, "Bahodir Yalang'to'sh" va "Maxtumquli Firog'iy" filmlari nafaqat milliy kino hayotida, balki butun turkiy dunyo ma'naviyatida ham muhim voqeaga aylandi. Ular qator xalqaro va milliy kinofestivallarda namoyish etilib, yuqori baholandi. Shu bilan birga, mazkur filmlar "Oltin Humo – 2025" milliy kino mukofotida ham munosib e'tirof etildi.

"Bahodir Yalang'to'sh" filmi, ayniqsa, alohida e'tiborga loyiq. Unda tarixiy shaxs sarkarda yoki jang qahramoni bo'libgina qolmay, davlatchilik, madaniyat va shaharsozlik rivojiga ulkan hissa qo'shgan ma'rifatparvar inson sifatida tasvirlanadi. Film orqali tomoshabin buyuk bobokalonimizning jasorati bilan birga uning davlatparvarlik tafakkuri, xalq oldidagi mas'uliyati va insoniy fazilatlarini ham anglaydi.

UCH AVLOD TANDEMI

Bugungi o'zbek kinosiga nazar tashlasak, unda uch avlodning barobar ishtirok etayotganini ko'rish mumkin. Bu holat milliy kinematografiyamiz rivoji uchun nihoyatda muhim omil. Chunki katta avlodning boy tajribasi, o'rta avlodning ijodiy izlanishlari va yosh avlodning yangi kino tilini izlashi bir-birini to'ldirib, milliy kino san'atini yanada boyitmoqda. Katta avlod vakillari orasida taniqli

rejissyorlar – Zulfiqor Musoqov, Jahongir Qosimov, Abduxalil Mingnorov, Hilol Nasimov kabi ustoz san'atkorlar borki, ularning ijodiy milliy kino maktabining shakllanishi va rivojida alohida o'rinni tutadi. O'rta avlod rejissyorlari orasida Yulqin To'ychiyev, Ayub Shahobiddinov, Jahongir Ahmedov kabi ijodkorlarni alohida tilga olish mumkin. Bu avlod vakillari milliy san'atni saqlagan holda kino tilini zamonaviy uslub va estetik izlanishlar bilan boyitmoqda.

Eng quvonarlisi, bugun kino maydonida yangi, jasoratli va izlanuvchan yosh avlod shakllanib ulgurdi. Ular orasida Akrom Shohnazarov, Shokir Holiqov, Abutolib Adamqulov, Jamshid Narziyev, Bobur Sher o'g'li, Jamoliddin Qo'ziyoyev, Suhrob Qodirov, Shohruh Rasulov kabi rejissyorlar kino muhitiga yangicha ruh olib kirmoqda.

Masalan, Jamoliddin Qo'ziyoyev tomonidan suratga olingan "Cho'liq" filmi "New York Film & Actress Awards" tanlovida "Eng yaxshi drama", "Eng yaxshi aktrisa" nominatsiyalarida hamda "Asian Talent International Film Festival"da "Eng yaxshi badiiy film" nominatsiyasida g'oliblikni qo'lga kiritdi. Qolaversa, mazkur asar "Global Taj International Film Festival 2025" xalqaro kinofestivalining yakuniy saralash bosqichiga yo'llanma olib, hozir Kann kino festivalining 79-mavsumi doirasida ko'rib chiqilayotgani o'zbek rejissyorlarining dunyo kino maydonida ham o'z o'rnini topayotganidan dalolat beradi. Suhrob Qodirov va Dilshod Usmonovning "Qadam" nomli qisqa metrajli filmi ham Kann festivalining tanlov ro'yxatiga kiritilgan. Bu o'zbek kinosi uchun yaqin yillardagi katta muvaffaqiyat, albatta.

FORUM – MULOQOT VA TAJRIBA MAYDONI

2025-yilning so'nggi dekabr oyida o'tkazilgan "Tirik tarix" xalqaro kino forumi tarixiy filmlar yaratish borasidagi sa'y-harakatlarga yangi sur'at baxsh etgan muhim madaniy voqeaga bo'ldi. Forum turli tajriba, ijodiy maktab va qarashlarni birlashtirgan keng muloqot maydoni sifatida namoyon bo'ldi. Unda Rossiya, Yaponiya, AQSH, Fransiya, Turkiya, Xitoy, Qozog'iston, Polsha, Vengriya, Ozarbayjon va Mo'g'uliston 50 ga yaqin rejissyor, produser, tarixchi va kinoshunos mutaxassis ishtirok etdi.

Forumning amaliy natijalaridan biri sifatida 10 dan ortiq xalqaro hamkorlik kelishuvi imzolandi. Bu esa o'zbek kinematografiyasining xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlash, milliy filmlarni keng auditoriyaga taqdim etish va yangi ijodiy imkoniyatlarini ochishga xizmat qiladi. Jumladan, Rossiya, Turkiya va Qozog'iston bilan qo'shma kinoloyihalarni amalga oshirish bo'yicha hamkorlik memorandumlari tuzildi. Rossiya bilan hamkorlik tarixiy va madaniy mavzulardagi filmlarni birgalikda yaratishga qaratilgan bo'lsa, Turkiya bilan kelishuvlar dramatik va zamonaviy janrlardagi kinoasarlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi. Qozog'iston bilan hamkorlik esa studiyalar imkoniyatlaridan foydalanish, tasvirga olish maydonchalarini birgalikda ishlatish va texnik hamkorlikni rivojlantirishga yo'l ochadi.

Shuningdek, Yaponiya va Fransiya bilan tajriba almashish bo'yicha muhim kelishuvlar belgilandi. Yaponiya mutaxassislari tomonidan kino texnologiyalari va vizual effektlar sohasida mahorat darslari o'tkazish, Fransiya kinomutaxassislari ishtirokida ssenariy yozish va rejissura bo'yicha seminarlar tashkil etish reja qilinmoqda. Bu tashabbuslar milliy kinematografiyani xalqaro standartlarga yaqinlashtirib, filmlarni Kann, Venetsiya va Berlin kabi nufuzli kinofestivallarda namoyish etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, xalqaro kinofestivallarda faol ishtirok etish orqali milliy kino san'atiga xorijiy investorlarni jalb qilish va yangi bozorlarga chiqish imkoniyatlari ham yaratiladi.

Umuman, forum milliy kino san'atini zamonaviy talablarga asosida rivojlantirish, xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlash va dunyo kino muhiti bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yishga xizmat qiladi. Eng muhimi, bunday tashabbuslar tajribali ijodkorlar bilan birga kinematografiyaga qiziqqan yoshlar uchun ham ilhom va yangi g'oyalarni manbaya bo'lib qolmoqda.

"OLTIN HUMO" – HAM RAG'BAT, HAM MAS'ULIYAT

2025-yil 17-dekabr kuni Toshkent shahridagi O'zbekiston Milliy kino san'ati saroyida "Oltin Humo – 2025" milliy kino mukofotining tantanali taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. U nafaqat yil davomida yaratilgan eng yaxshi filmlar va ijodkorlarni e'tirof etishga qaratilgan nufuzli tadbir, balki milliy kinematografiya rivoji, ijodiy salohiyatni rag'batlantirish va yuqori professional mezonlarni mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim madaniy voqea bo'ldi.

2019-yildan buyon an'anaviy o'tkazib kelinayotgan "Oltin Humo" mukofoti kino sohasida sog'lom ijodiy raqobat muhitini shakllantirish, yangi g'oya va izlanishlarni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma'noda, u oddiy sovrin emas, milliy kinematografiyaga qaratilgan davlat siyosati va ijodkor mehnatiga berilgan yuksak e'tirof ramzidir. O'z navbatida, rejissyor, ssenarist, operator va boshqa mutaxassislarining ijodiy izlanishlarini rag'batlantirib, milliy kinoni xalqaro standartlar darajasiga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

2025-yilgi marosimda 62 ta kinoasarlardan 25 ta badiiy, 21 ta hujjatli va 16 ta animatsion film ko'rib chiqilib, 18 ta nominatsiya bo'yicha g'oliblar aniqlandi. Saralash jarayoni xorijlik kinoijodkorlar va mutaxassislar tomonidan amalga oshirildi. Rejissyor Muzaffar Erkinovning "Maxtumquli Firog'iy" badiiy filmi eng yaxshi film deb topildi. Iqbol Meliq'ziyevning "Amaliyotchi qiz" filmi tomoshabinlar mehrini qozongan



Shuhrat RIZAYEV, Kinematografiya agentligi direktori vazifasini bajaruvchi, professor

tutayotgani bilan ahamiyatli hisoblanadi.

MA'NAVIYAT KO'ZGUSI

Kino faqatgina ermak tomosha yoki ko'ngilochar vosita emas. U millat ruhiyatini aks ettiruvchi oyina, xalqning xotirasi va ertangi orzusini bog'lab turuvchi ma'naviy ko'prikdir. Ekranida namoyon bo'lgan har bir obraz, har bir voqea inson qalbiga ta'sir qiladi, fikr va qarashlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda kino san'ati milliy ma'naviyatning ustuni sifatida yanada keng targ'ib etilmoqda. 2024-2025-yillar davomida Kinematografiya agentligi tashabbusi bilan mamlakat bo'ylab 300 dan ortiq ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi. Bu orqali kino xalq hayotiga yanada yaqinlashdi va uning tarbiyaviy ahamiyati keng jamoatchilikka yetkazildi. Xususan, "Kinokarvon" loyihasi doirasida mamlakatning turli hududlarida ko'chma kino namoyishlari o'tkazilib, ikki milliondan ortiq yurtdoshimiz bevosita kino bilan muloqot qilish imkoniga ega bo'ldi. Bu nafaqat markaz, balki olis hududlarda ham kino san'atini keng targ'ib etishga xizmat qiladi.

Turli milliy kino, serial va animatsion filmlar yoshlar qalbiga milliy g'urur, tarixni anglash va ma'naviy qadriyatlarini singdirishda alohida o'rinni egallab bormoqda. Ayniqsa, yosh avlod uchun yaratilayotgan animatsion loyihalar tarixni sevishtirish, milliy ildizimizni anglash va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda muhim vositaga aylantirilmog'da.

Milliy filmlar zamonaviy axborot muhitida ham keng namoyish etilmoqda. Onlayn platformalarga 500 dan ortiq film va 120 dan ortiq animatsion asar joylashtirilgan bo'lib, ular jami 463,6 milliondan ortiq marotaba tomosha qilindi. Bu raqamlar milliy kino san'atiga qiziqish tobora ortib borayotganidan dalolat beradi.

Muxtasar aytganda, "Tirik tarix" dasturi doirasida yaratilgan filmlar tarixni ekran orqali qayta jonlantirib, milliy xotirani mustahkamlamoqda va xalq qalbiga faxr hamda g'urur tuyg'ularini uyg'otmoqda. Zero, tarixga suyangan xalq kelajakka ishonch bilan qadam qo'ya oladi. Ildizi mustahkam daraxt har qanday bo'ronlarga dosh beradi.



asarlarda e'tirof etildi. Jahongir Ahmedovning "Oq oltin balosi" hujjatli filmi va Azizbek Muhammadovning "Aqli qizaloq" animatsion filmi ham o'z nominatsiyalarida g'olib bo'ldi. Mashhur rejissyor Zulfiqor Musoqovning "Umida. Fudziyama haqida tush" filmi esa eng yaxshi rejissyorlik ishi sifatida taqdirlandi. Marosimda yoshlar uchun mo'ljallangan "Buyuk bobolarim bolaligi" animatsion filmlar turkumi ham taqdim etildi. Ushbu loyiha buyuk allomalardan mutafakkirlarning bolalik davri badiiy-animatsion tarzda yoritishi bilan ahamiyatlidir.

Shu tariqa, "Oltin Humo" milliy kino mukofoti nafaqat eng yaxshi filmlar va ijodkorlarni e'tirof etdi, balki milliy kinematografiyani rag'batlantirish, uni xalqaro maydonga olib chiqish va keng jamoatchilikka yaqinlashtirishda muhim o'rinni



TIRIK TARIX

keyinchalik kino tabiatiga ham to'la mos keldi. Chunki kino xuddi teatr kabi insonni vaqt va makon chegarasidan chiqarib, uni tarix bilan yuzma-yuz qo'ya oladi.

Bugun xalqimiz Yangi O'zbekiston g'oyasi bilan yashamoqda. Bu g'oya faqat iqtisodiy yoki siyosiy islohotlar bilan cheklanmaydi. U, avvalo, milliy xotirani tiklash, tarixga xolis munosabatni shakllantirish va xalqning ma'naviy o'zligini anglash jarayonini anglatadi. Zero, o'z tarixini chuqur anglagan xalq kelajagini ishonch bilan barpo eta oladi. Ko'pincha tarixni faqat o'tmish sifatida qabul qilamiz. Aslida, u tirik jarayondir. Tarix inson xotirasi, madaniyat va eng muhimi, kitob hamda kino orqali avlodlarning avlodga o'tadi. Kino va adabiyot tarixni muzey devorlarida qoldirmaydi – uni inson qalbiga ko'chiradi.

Shu ma'noda, 2024-yil may oyida Prezidentimizning kinoijodkorlar bilan uchrashuvida "Tirik tarix" megaloyihasi taqdim etilgani kino ahli uchun muhim voqea bo'ldi. Bu tashabbus nafaqat kinoijodkorlarni, balki tarixchilarni, madaniyatshunoslarni va keng jamoatchilikni ham bir maqsad atrofida birlashtirdi. Ushbu g'oyaning mantiqiy davomi sifatida tashkil etilgan "Tirik tarix" xalqaro forumi O'zbekistonning tarixga ochiq, dunyo bilan madaniy muloqotga tayyor mamlakat ekani yanada bir bor namoyon etdi. Bunday anjumanlar tarixiy haqiqat va badiiy tafakkur o'rtasida muvozanat topishga xizmat qiladi, yosh ijodkorlarni tarixiy mavzularga qiziqtiradi va milliy tarixni zamonaviy kino tilida ifoda etishga rag'batlantiradi.




“Kino tomoshabinga shunday ta'sir qilsinki, u qayerda o'tirganini unutsin.”

Roman POLANSKI



OLAM OLIMI

Miyadagi GPS tizimi kashshoflari



Jon OKIF



Mey-Britt MOZER



Edvard MOZER

2014-yilgi fiziologiya yoki tibbiyot bo'yicha Nobel mukofoti ikkiga bo'lindi, yarmi Jon Okifga, yarmi Mey-Britt Mozer va Edvard Mozerga "Miyada joylashuv tizimiga javob beruvchi hujayralarni kashf etganliklari uchun" berildi. Tadqiqot miyada "ichki GPS", ya'ni joylashuv va harakatlanishni boshqaruvchi neyron tizim mavjudligini ilmiy isboti bo'ldi. Bu kashfiyot inson xotirasi, fikrlash va muhitni idrok etish mexanizmlarini tushinishda yangi bosqichni boshlab berdi.

TANISHUV

Jon Okif Nyu-York shahrida tug'ilgan. 1967-yilda Kanadaning Monreal shahridagi Makgilla universitetida fiziologik psixologiya bo'yicha doktorlik darajasini olib, London universitet-kollejida tadqiqot olib bordi. 1987-yilda universitet kollejidagi kognitiv nevrologiya professori etib tayinlandi. Hozir "Sainsbury Wellcome" neyron zanjirlari va xulq-atvor markazining direktori sifatida ishlab kelmoqda.

Edvard Mozer Norvegiyaning Olesunn shahrida, Mey-Britt xonim esa Fosnavog shahrida tug'ilgan. Ikkalasi Oslo universitetida psixologiya bo'yicha tahsil olgan hamda shu yerda tanishib, oila qurishgan. Ikkalasi ham nevrofiziologiya bo'yicha fan doktori hamda professor. Juftlik Edinburg va London universitet-kollejini tamomlagach, Trondxaymdagi Norvegiya fan va texnologiyalar universitetiga ishga o'tadi. Mey-Britt universitetning Neyron hisoblash markazi direktori, Edvard Mozer esa Kavli tizimli nevrologiya instituti direktori bo'lib ishlaydi.

KASHFIYOT TARIXI

1971-yilda Jon Okif miyaning gippokampus qismida joylashgan maxsus neyronlarni aniqladi. Ushbu neyronlar organizm muayyan joyda turganida faollashadi. Ular keyinchalik "joy hujayralari" deb nomlandi. Olimning xulosasiga ko'ra, bu hujayralar miyada atrof-muhitning ichki "xaritasi"ni shakllantiradi. Bu inson qayerda turganini anglashga yordam beradigan asosiy mexanizm hisoblanadi.

2005-yilda Mey-Britt va Edvard Mozertlar bu tizimning yana bir muhim qismini – "to'r hujayralari"ni (grid cells) kashf etdi. Ushbu neyronlar makonda koordinatlar tizimiga o'xshash tartibda ishlaydi va joylashuvni aniq belgilash imkonini beradi. Joy va to'r hujayralari o'zaro hamkorlikda ishlab, miyada mukammal navigatsiya tizimini hosil qiladi.

Makoni anglash masalasi asrlar davomida olimlar va faylasuflarni qiziqtirib kelgan. Masalan, Immanuel Kant makon hissi insonda tug'ma deb hisoblagan. Keyinchalik Edvard Tolmen "kognitiv xarita" tushunchasini ilgari surgan. Biroq bu "xarita" miyada qanday saqlanishi va qanday ishlab uzoq vaqt noma'lum bo'lib kelgan. 2014-yilgi ushbu kashfiyotlar aynan shu savolga aniq ilmiy javob berdi.


AHAMIYATI

Bu kashfiyotlar ayniqsa neyrodegenerativ kasalliklarni tushunishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, Altsgeymer kasalligida gippokampus zararlanadi va bemorlar aqliy yo'nalishini yo'qotadi. Shu bois, ushbu tadqiqotlar kelajakda bunday kasalliklarni erta aniqlash va samarali davolash usullarini ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Miyaning navigatsiya tizimi bo'yicha olib borilgan ushbu ilmiy ishlar insonning yuqori kognitiv funksiyalari – xotira, rejalashtirish va qaror qabul qilish jarayonlarini chuqurroq tushunish imkonini berdi. Bugungi kunda vazkur tadqiqotlar sun'iy intellekt, robototexnika va neyrotexnologiya sohalarida ham qo'llanilmoqda. Masalan, mustaqil harakatlanuvchi tizimlar aynan shu neyron modellarga asoslanib ishlab chiqariladi.

Jasmina ISROIIL tayyorladi.

MOZIYDAN SADO

Devoniy
(1883–1938)

Xiva xonligi saroyida nufuzli hunar egalardan biri muhrkon hisoblangan. Bu kasb egasi xon, vaziri akbar, devonbegi, qozikalon, muftiy, qal'a hokimlari, raiyat qozilari uchun muhrlar yasagan. Muhrlar odatda qattiq yog'ochdan, ko'p hollarda hayvon suyaklaridan yasalgan. Fil suyagidan yasalgan muhrlar kamyob bo'lib, bu ayni paytda muhr egasining ijtimoiy-iqtisodiy nufuzini ham belgilagan.

Xiva xonligi taxtida eng ko'p o'tirgan Muhammad Rahimxon soniy – Feruz zamonasida saroyda muhrkonlik uzoq yillar Ismoil Pano zimmasida bo'lgan. Xiva yaqinidagi Sangar qishlog'idan chiqqan Ismoil Pano zamonasining ilg'or ziyolilaridan bo'lib, muhrkonlikdan tashqari muhr naqqosh ham edi. Ismoil Pano 1887-yilda dunyoga kelgan farzandiga taniqli zamondoshi Komil Xorazmiy ismini beradi.


Qarangki, vaqt kelib Komil Xorazmiy yaratgan yangicha "Tanbur chiziqchilari"ni shogirdi-adashi chiroyli tarzda qog'ozga tushiradi. Faqat qog'ozga emas, maxsus tayyorlangan yog'och bo'laklariga ham muhrlaydi. U Xorazmning qadim "Shashmaqom" musiqasining benazir ijrochisi sifatida ham taniladi, sababi, yoshligidan tanbur, dutor va g'ijjaki mohirona chala olar va musiqqa asboblarini ham yasardi. Hatto, o'sha vaqtda g'oyat kamyob hunar – qurolsozlikni ham egallaydi. U chiroyli husnixat egasi ham bo'lib, shoirlarga devonlari muqovalarini tayyorlashda beminnat yordam beradi.

Tarixdan ma'lumki, "Gandimiyon shartnomasi"da xonlik o'z puliga ega bo'lmasligi, chor hukumatida amalda bo'lgan rubldan foydalanishi shart qilib qo'yilgandi. Mustamlakachilar xonlikning tilla va kumush tangalarini qog'oz pullarga almashtirib, asta-sekin muomaladan chiqarishga harakat qiladi. Lekin oddiy xalq hamon qog'oz pulga emas, ota-bobolaridan meros tangalarga ishonardi. Ko'p holatlarda bosqinchilar qurgan zavod va fabrikalarga o'zlariga yetishtirgan mahsulotlarni qog'oz pulga sotishdan bosh tortardi.

JAHON AYVONIDA

NAQD PUL OLIB CHIQISH
CHEKLANADI

Rossiyadagi jismoniy shaxslar 2026-yil 1-apreldan boshlab Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlari – Armaniston, Belarus, Qozog'iston va Qirg'izistonga 100 ming dollardan ortiq naqd pul olib chiqolmaydi. Bu haqda Vladimir Putin tegishli farmoni imzoladi.



Yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar uchun esa naqd pulni poyezd yoki avtomobil orqali olib chiqish butunlay taqiqlanadi. Faqat Rossiyaning xalqaro aeroportlari orqali olib chiqishi mumkin bo'ladi.

META JARIMAGA TORTILDI
AQSHning Nyu-Meksiko shtati sudi Metakorporatsiyasining platformalarida



bolalar xavfsizligi borasida foydalanuvchilarni aldaganlikda aybdor deb topdi va 375 million dollar miqdorida jarima belgiladi. Bu haqda BBC xabar berdi.

Shtat bosh prokurori Raul Torres ushbu qarorni tarixiy deb baholadi. Hakamlar hay'ati xulosasiga ko'ra, Facebook, Instagram va WhatsApp egasi bo'lgan Meta o'z platformalarida bolalarning shahvoniy mazmundagi materiallar va pedofillar bilan to'qnash kelishiga yo'l qo'ygan.

OYDA BAZA QURILADI



NASA rahbari Jared Ayzekmaning nutqiga tayanib, Al Jazeera

DEVONIYNING DARAKSIZ DEVONI

bora yevropacha taqdirlov usulining ko'rinishi sifatida paydo bo'lgan nishon edi.

Jadidlar ta'sirida paydo bo'lgan, xalq qo'llab-quvvatlayotgan yangi respublika sovet dohiylari yuragiga qutqu sola boshlaydi. Bolsheviklar mustaqil respublikani yo'q qilishda turli hiyla-nayranglar: qurol ishlatishdan ko'ra ko'proq yangi ma'muriyat ichiga fitna urug'ini sochish usulini qo'llashadi. Natijada kuni kecha bir safda turib, yurt ozodligini bayroq qilgan "Yosh xivaliklar" orasida bir-biriga ishonmaslik, dushmanlik muhiti yaratiladi...

Sovetlar harakatning eng faol a'zolarini badnom qilishga zo'r beradi. Bu taqdir Komil Xorazmiy boshiga ham tushadi. 1924-yil Xivada "eskilik tarafdori" tamg'asi ostida Komil Devoniy ustidan "namunali sud" mahkamasi bo'lib o'tadi. Nohaq qoralangan, bo'lmag'ur tuhmatlar yelkasiga ilingan Komil Devoniy sud mahkamasidan so'ng Toshhovuzdagi qarindoshlarini qora tortib, ko'chib ketishga majbur bo'ladi. U faqat elda qatag'onlar sal tinchigach, o'g'li Hamza tug'ilganidan so'ng, 1932-yilda Xivaga qaytib keladi. Darvoqe, Komil Devoniy o'g'liga mashhur ma'rifatparvar Hamza nomini behuda qo'ymagan. Hamza ham sovetlar tomonidan Xorazmga surgun qilinganida, u bilan ko'p bor uchrashgan, taniqli shoir va dramaturg bilan yaqin birodar bo'lib qolgan.

Komil Devoniy Xiva naqqoshlik maktabining bilimdoni sifatida 1935-yilda Toshkentga ko'chib keladi va Farg'ona, Qo'qon, Toshkent milliy naqqoshlik san'atini o'rganish, o'zaro taqqoslash va uyg'unlashtirish ustida ishlaydi. U muqaddam Xivadagi madrasa, masjid, minora va boshqa me'moriy yodgorliklar darvozalari peshtoqiga tarixlar yozish, marmar toshlarga g'azallarni o'yib, naqsh bilan sayqal berish bilan shug'ullangandi. Endilikda bu hunarini Toshkent va boshqa shaharlarda bunyod etilgan obidalariga naqsh berishga yo'naltiradi.

Shu davrda u umri davomida yozgan g'azal, ruboiy, muxammaslarini to'plab alohida devon tuzadi va 1936-yilda Toshkent davlat nashriyotiga olib boradi. Ammo nashriyot mas'ullari unga "devon eskilik sarqiti" ekanini aytib, sovetlar inqilobidan keyin yozganlarini to'plam qilish maslahatini beradi. Noiloq qolgan shoir nashriyot bilan to'plam chop qilish bo'yicha shartnoma ham tuzadi. Mazkur shartnoma bandlaridan birida "Sovet davlati amalga oshirgan bunyodkorliklar haqida yozish" eslatilgandi.

Komil Devoniyning avval devon shaklida tuzgan, nashriyot talabi

bilan shaklan o'zgartirilgan to'plamida an'anaviy she'riyat namunalardan tashqari, jadidlar g'oyasi ta'sirida yozgan ilm-fan, ma'rifat mavzusidagi she'rlari ham tayyorga, ammo "obod o'lka", "ozodlik diyori", "asriy qullikdan halos qilgan partiyam" kabi ulug'lovchi satrlar bo'lmagan. Zamona zayliga qarshi borish yana boshiga balalar yog'dirishini sezgan shoir nashriyot mutasaddilari taklif qilgan mavzularda ham bir nechta she'rlar yozib, nashriyotga topshiradi. Ammo...

1937-yilning kuzi – aqrab oxirlarida Toshkentning 1-Qoratosh mahallasi 8-uyda ijod bilan mashg'ul Komil Devoniy NKVD xodimlari yo'qlab keladi va hech bir ayblov-asossiz qamoqqa oladi. Uni dastlab Xorazmga keltirib, Urganchdagi hibsxonada to'xtovsiz tergov qilishadi. Tergovchilar undan "xon saroyiga yaqin ijodkorlar", "jadidlarga qo'shilgan "Yosh xivaliklar" harakati a'zolari" haqida ma'lumot va chaquvlar olishga urinadi. Biror natija chiqmagach, uni yana Toshkentga olib ketishadi va bu yerda ham kecha-yu kunduz tergov davom etadi.

Otasidan meros muhrkonlik hunarini san'at darajasiga ko'targan, marmar-u yog'ochlarga o'rgan betakror naqshlari millat mulkiga aylangan inson birinchi navbatda odamiylikni o'z yuragiga o'chmas qilib muhrlagan ediki, undan sotqin yasashga urinishlar barchasi bekor ketadi. Komil Devoniy 1938-yil 5-may kuni qamoqxonada yurak hurujidan vafot etadi.

Devoniy o'tgan asrning 50-yillari ikkinchi yarmida, sovetlarning vaqtinchalik ilmiy siyosati zamonida oqlanadi, ammo uning sharqona an'analar ruhida yozgan asarlaridan tuzilgan devoni nom-nishonsiz yo'qoladi. Manfur tergovchilar shoir to'plamini ashyoviy dalil sifatida nashriyotdan musodara qilib, so'ng yo'qotgan bo'lishi mumkin. Buyuk Abdulla Qodiriyi hibsga olish vaqtida uyidan olingan barcha qo'lyozmalar (ular orasida tugallanmagan "Amir Olimxonning kanizi" romani ham bo'lgan) taqdiri ham aynan shunday kechganini bilamiz-ku!

Keyinchalik tadqiqotchilar Komil Devoniyning o'sha davrda vaqti nashrlarda chop qilingan bir nechta she'rlari va hozirgi xotiralarda qolgan g'azallarini topishga muvaffaq bo'ladi. Bular dengizdan tomchi edi, xolos...

Devoniyning g'oyat yuksak did va mahorat bilan marmar-u yog'ochlarga o'rgan naqshlari abadiyat mulkidir. Bugun qadim Xivaga dunyoning turli burchaklaridan tashrif buyurayotgan sayyohlar obidalar peshtoqidagi she'riy uslubda o'yilgan naqshlarni ko'rib, hayratga tushmoqda.

Ro'zimboy HASAN

yo'zishicha, tashkilot Oy orbitasida kosmik stansiya qurish rejasidan voz kechib, bor e'tiborini doimiy baza qurishga qaratadi.

Kelgusi yetti yillikda loyihaga 20 milliard dollar mablag' ajratish rejalashtirilgan.

Vashingtonda Artemis dasturida ishtirok etayotgan hamkorlar, pudratchilar va hukumat rasmiylari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. NASA uchrashuvda Oyga robotlashtirilgan missiyalarni ko'paytirishini e'lon qildi. Shuningdek, Oy yuzasida yadroviy energiya uchun sharoit yaratishini ma'lum qildi.

SUV OSTIDAGI TO'QNASHUVGA
TAYYORGARLIK

Xitoy Tinch, Hind va Shimoliy muz ummonlarida suvosti monitoringi va xaritalash bo'yicha keng ko'lami operatsiyani amalga oshirmoqda. Harbiy ekspertlarning fikricha, ushbu ma'lumotlar AQSH va uning ittifoqchilariga qarshi suv ostida jang olib

borishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Reuters agentligi tomonidan o'rganilgan kema kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, Dong Fang Hong 3 tadqiqot kemasi 2024-2025-yillar davomida Tayvan yaqinida, AQSHning Guamdagi bazasi atrofida va Hind okeanining strategik hududlarida faol harakat qilgan.

YO'LDAGI JANJAL UCHUN JAZO



Qirg'izistonda haydovchilarning yo'ldagi aggressiv xatti-harakatlari uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi qonun loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi, deya xabar berdi 24.kg.

Qonun loyihasi huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksga o'zgartirishlar kiritish hamda yangi – 189-moddada joriy etilishini ko'zda tutadi. Bu modda haydovchilar o'rtasidagi nizolar, mushtlashuvlar va boshqa aggressiv harakatlarni bevosita tartibga soladi.



O'T-ALANGA ICHIDA

Boshlanishi 1-sahifada.

Ular go'yoki "aksilinqilobiy tashkilot"ga a'zo, "millatchi guruh" faoliyatida ishtirokchi yoki "sovetlarga qarshi targ'ibotchi" sifatida tuhmatlar bilan qatag'on domiga tortib ketilgan. Tergov ishlari aynan shu asosda yuritilgan.

Bugun hikoya qilmoqchi bo'lgan ikki taraqqiyparvar shaxs – Mardonbek Nosirbekov va Otaxon Nazirxonov hayoti ham ana shu davrning tipik, ayni paytda fojiali manzarasini ko'z o'ngimizda ro'yirost gavdalantiradi.

Mardonbek Nosirbekov 1889-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Inqilobgacha Toshkent tramvayida vagon haydovchisi bo'lib ishlagan bu insonning hayoti bir qarashda oddiy shahar ishchisining taqdiriga o'xshaydi. Biroq XX asr boshidagi siyosiy silkinishlar ko'plab insonlar hayotiga ta'sir qilgani kabi Nosirbekovning taqdirini ham o'zgartirib yubordi. 1918–1921-yillarda u Toshkentda faoliyat yuritgan so'li eserlar tashkilotiga qo'shilib, uning nufuzli, faol a'zolaridan biriga aylandi. Bolsheviklarga qarshi bosh ko'targan Osipovning safdoshi polkovnik Abdusolihov (*ismi noma'lum, 1919-yilda isyonga rahbarlik qilgan uchun o'tib tashlangan*) bilan birga qo'zg'olonda qatnashgani hujjatlarda qayd etilgan.

Ison tor-mor qilingach, Nosirbekov qo'zg'olonda ishtirok etganlik vaji bilan 11 kun hibsdan saqlanadi. Bu voqeadan so'ng u siyosiy faoliyatdan chetlashib, hayotini oddiy mehnat bilan davom ettirishga urinadi. Turli muassasalar, jumladan, "Matbuot uyushmasi" ("Союзпечат")da hisobchi vazifasida ishlay boshlaydi.

Tashqaridan qaraganda, bir inson hayoti go'yo iziga tushgandek ko'rinadi. Ammo 1930-yillar oxirida avj olgan ommaviy qatag'onlar davrida "o'tmish izlari" qayta ko'vlab, Nosirbekovning taqdiri ham davlat xavfsizlik idoralari "nazaridan chetda qolmaydi". Shunday qilib, bir paytlar go'yo o'chib, hovuri tarqalgandek tuyulgan cho'g' qayta olovlanib, qahramonimiz hayoti o'talanga ichida qoldi. U 1938-yil 23-fevralda Ichki ishlar xalq komissarligi xodimlari tomonidan so'li eserlar tashkiloti bilan aloqada bo'lganlikda, sovet hukumatiga muxolif "Milliy ittihad" tashkilotiga a'zollikda, sovetlarga qarshi tashviqot olib borganlikda ayblanib hibsga olinadi va Toshkent turmasiga olib ketiladi.

Qaydlardan fahmlash qiyin emaski, tergov o'ta shafqatsiz, zo'ronlik va inson sha'nini poymol qiluvchi usullar bilan olib borilgan. Mardonbek Nosirbekovga nisbatan tuzilgan "ayblov xulosasi"da uning uzoq yillar savdogarlik bilan shug'ullangani

va inqilobdan keyin eserlar partiyasining faol a'zolaridan bo'lgani keltirilgan. Osipov qo'zg'olonida ishtirok etgani, qo'zg'olonchi eserlarning eski shahar tashkilotida podpolkovnik lavozimida bo'lgani ayb sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, o'tib tashlangan polkovnik Abdusolihov o'rni-ga isyonga rahbar etib tayinlangani, qo'zg'olon bostirilgandan so'ng ham sovet hokimiyatiga qarshi kurashni davom ettirgani, "aksilinqilobchilar" deb baholangan Mirzo Alimov va Mirzo Mahmud bilan yaqin aloqada bo'lgani ta'kidlangan.



"Osipov isyoni" 1919-yil, Toshkent.

Ustma-ust qalashtirib tashlangan bu "ayblovlar" asosida Mardonbek Nosirbekov O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligining 1938-yil 5-apreldagi qarori bilan 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilinadi. Oradan bir yil o'tgach, u o'zining nohaq ayblangani va tergovda bergan ko'rsatmalari jismoniy kuch ishlatish yo'li bilan yozilganini isbotlash maqsadida SSSR Prokuraturasiga shikoyat xati bilan murojaat qiladi. Unda ta'kidlashicha, Nosirbekov 1938-yil 25-fevralda "Союзпечат" idorasida kassir bo'lib ishlab turgan paytda Toshkent Ichki ishlar xalq komissarligi vakolatli xodimi Saxarov tomonidan hibsga olinadi.

"Nima sababdan hibsga olindim?" degan savolga javoban Saxarov: "Sovet hokimiyatiga qarshi targ'ibot qilgansan", deb odatiy javob qiladi. Biroq Nosirbekov bu targ'ibot qachon, qayerda va qanday sharoitda amalga oshirilgani haqida tushuntirish berishlarini talab qiladi.

Tergovchi talmovsirab, odaticha: "O'zing biladigan va gapirgan narsalaringni aytib ber", deydi xolos. Qahramonimiz o'zini qat'iy himoya qiladi. Ilk so'roq shu bilan yakunlanadi. Biroq tergovchilar unga: "Baribir biz seni aybingni tan oldirishga erishamiz, boshqa yo'llar bilan bo'lsa ham", deya tahdid qiladi.

Nosirbekov "boshqa yo'llar" nima ekani-ni hibsdayoq tushunib yetadi. "Ayblanayotganlarni qattiq kaltaklashlarini eshitdim va ko'p o'tmay bunga o'z ko'zlarim bilan ham guvoh bo'ldim. Ikki kishi tergovdan

qaytgach, ularni yarimjon holatda kaltaklangani ko'rdim. Keyingi tergovga chaqirilganida ular meni kaltaklashni boshladilar. Men esa qariya, sog'lig'i zaif odam sifatida bu jismoniy azoblariga dosh berishdan ko'ra, balki hech qachon bunday azoblarga chiday olmasligimni tushunib yetib, ular talab qilgan narsani imzolashga qaror qildim", deb yozadi murojaatida.

Shunday qilib, Nosirbekov tergov bayonotini turli bosim, tahdidlar ostida o'qimasdan imzolaydi. Shu munosabat bilan u "uchlik" tomonidan qabul qilingan qarorni qayta ko'rib chiqishni va yolg'on ko'rsatmalar asosida berilgan jazoni bekor qilishni so'raydi. Bir yilcha vaqt o'tgach, 1940-yil 26-avgustda Mardonbek Nosirbekovga berilgan jazo muddati 10 yildan 5 yilga qisqartirilib, uning o'zi "Volgolaq" mehnat-tuzatuv lageriga ko'chiriladi. Taassufki, uning bundan keyingi taqdiri noma'lum...

"Milliy ittihad" va so'li eserlar tashkilotiga a'zollikda ayblangan yana bir qatag'on qurboni Otaxon Nazirxonov bo'ladi. U 1887-yili Toshkent shahrining Shayxontohur dahasi Zanjirlik mahallasida tug'ilgan. Uning hayot yo'li ham o'sha davr shahar aholisiga xos ijtimoiy manzarani aks ettiradi. Inqilobgacha u yollanma ishchi bo'lib mehnat qilgan, keyinchalik savdo bilan shug'ullangan. Yangi iqtisodiy siyosat davrida uch yil savdogarlik qilgan.



Rustambek SHAMSUTDINOV, tarix fanlari doktori, professor

1919-yilda VKP(b) partiyasiga a'zo bo'lgan bo'lsa-da, 1922-yilda partiya safidan chiqarilgan. Keyinchalik kommunal bankda hisobchi bo'lib ishlagan. Biroq...

1930-yillar oxiriga kelib shunday muhit shakllangan ediki, insonning o'tmishga doxil har qanday harakati (hatto, harakatsizligi ham) tayyor ayblovga aylantirilishi mumkin edi. Savdo qilib ro'zg'or uchun g'imirlagani ham, hech kimga ozori tegmay jim yurgani ham shubhaga olinardi. Qatag'on davrining mantig'i mashhur masaldagi bo'rinig qo'zichoqqa qarata: "Aybing shuki, uchrab qolding qornim ochganda", deganiga o'xshab ketardi.

1938-yil 23-fevralda Nazirxonov Toshkentdagi uyidan hibsga olinadi. U 1918-yildan eser partiyasi a'zosi, "Ittihod va taraqqiy" hamda "Milliy ittihad" tashkilotlarining a'zosi bo'lganlikda, uning Andijon filialini tashkil qilganlikda, tashkilotga yangi a'zolarni jalb etganlikda ayblangan. So'nggi vaqtgacha Osipov qo'zg'oloni yetakchisi Mardonbek Nosirbekov bilan yaqin aloqada bo'lgan, degan ayblov ham qo'yilgan.

1938-yil 5-aprelda chiqarilgan qarorga ko'ra, Otaxon Nazirxonov ham 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilinadi. Biroq u og'ir mehnat sharoitlariga bardosh berolmay, 1938-yil 7-oktyabrda halok bo'ladi.

Otaxon Nazirxonovning fojiali taqdiri, garchi oradan qariyb o'ttiz yilga yaqin vaqt o'tganiga qaramay, uning oilasi uchun mavhumligicha qolgan edi. 1968-yilda o'g'li O'lmas Otaxonov padarining o'shandan keyingi taqdirini bilish ilinjida O'zbekiston davlat xavfsizlik idorasi rahbariga murojaat qiladi. Ariza yana bir jihati bilan o'quvchini o'ylantirmay qo'yilmaydi. O'g'il otasi taqdiri haqida so'ray turib, oilada uning haqida ma'lumot berishi mumkin bo'lgan biror yaqin qarindoshi qolmaganini yozadi. Akasi Ulug'bek Ikkinchi Jahon urushida halok bo'lgan, onasi 1950-yilda vafot etgan. Bu holat qatag'on fojiasining bir oila taqdirini qanday izdan chiqarib yuborganini yaqqol ko'rsatadi.

Arizada katta talab yoki ayblov qo'yilmagan, yagona savol: "O'tam oqlanganmi yoki yo'q?" Bu so'roq ortida mohiyatan butun bir avlodning iztirobi, haqiqatni bilishga bo'lgan ehtiyojini anglab yetamiz. Shu ma'noda, O'lmas Otaxonovning murojaati qatag'on davrida jabr ko'rgan minglab oilalar taqdirini ifodalovchi tarixiy hujjat sifatida qimmatli, ahamiyatli manba hamdir.

Mardonbek Nosirbekov va Otaxon Nazirxonov taqdiri arxiv hujjatlarida saqlangan ko'plab fojiali hikoyalardan faqat ikkitasi, xolos. Bu ikki taraqqiyparvar shaxs vafotlaridan so'ng, 1962-yil 20-iyunda rasman oqlangan. Lekin oradan yarim asr o'tgachgina, tarixiy adolat tiklanib, bugun ularning nomi munosib yodga olinmoqda, qadr topmoqda.

AZIZ XOTIRA



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Sodiqjon Boltaboyev – 1900-yili Qo'qon shahrida dehqon oilasida tug'ilgan. Millati o'zbek. 18 yoshigacha otasi bilan birga ishlagan. 1915-yili o'zbek maktabida 4-sinfni bitirgan, 18 yoshidan Qo'qon temir yo'l deposida ishchi, 1922-yilgacha koteshlik bo'lgan. 1923–1926-yillari temir yo'l deposida ishlagan. 1922-yil 1-apreldan partiya kirgan. 1926–1928-yillari Qo'qon uyezd kasaba uyushmasi raisi, 1928–1929-yillari okrug ijroiya komiteti raisi, 1929-yil mayda O'zbekiston SSR Sovetlarining V qurultoyida O'zSSR Xalq komissarlar soveti raisi o'rinbosari, 1929–1931-yillari Toshkentda O'zbekiston kompartiyasi Markaziy komiteti Markaziy kontrol komissiyasi raisi, 1931–1934-yillari O'zkompartiya Markaziy komiteti kontrol komissiyasi kotibi, 1934-yilda Toshkent shahar partiya komiteti sekretari vazifalarida xizmat qilgan.

1936–1937-yillari O'zbekiston kompartiyasi Markaziy komitetining uchinchi kotibi lavozimida faoliyat ko'rsatgan. Sodiqjon Boltaboyev NKVD xodimlari tomonidan 1937-yil 10-avgustda hibsga olingan. U 1930-yilda O'zbekiston kommunistik partiyasi Markaziy komitetining sobiq kotibi Akmal Ikromov tomonidan "Milliy istiqlol" tashkiloti ishiga jalb qilinganlikda, shuningdek, Narpat, Qo'qon, Bag'dod, Kaganovich, Kuybishev, Farg'onada ommaviy qo'zg'olonchi tuzilmalar tashkil etganlikda ayblangan. U O'zSSR Jinoyat kodeksining 57, 58, 63, 64 va 67-moddalarida ko'zda tutilgan jinoyatlarni sodir etganlikda ayblanib, SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 4-oktyabrda Toshkentdagi yig'ilishida otuvga hukm etilgan. Keyinchalik u 1956-yil 29-iyunda reabilitatsiya qilingan.

Qori Eson Xonto'rayev – 1884-yili Buxoroning Sabzovor qishlog'ida tug'ilgan. "Milliy ittihad" tashkilotining sobiq a'zosi. Hibsga olingan vaqtda o'qituvchilik bilan mashg'ul bo'lgan. Aholi orasida millatchilik, aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda, ishonuvchan musulmanlarni birlashtirishga va sovet hokimiyatiga qarshi kurashishga chaqirganlikda, xalq dushmanini yoqlaganlikda ayblangan. 5568-sonli ish bo'yicha jinoyi javobgarlikka tortilib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 27-avgustdan hisoblanadi.

Asror Zaynuddinov – 1886-yil Namanganda tug'ilgan. 1925-yildan boshlab boshlang'ich maktabda o'qituvchi bo'lib ishlagan. 1929-yil 22-dekabrda hibsga olingan. OGPuning 1931-yil 25-apreldagi qarori bilan RFSFR Jinoyat kodeksining 58-moddasi, 2-, 4-, 10-bandlari bilan ayblanib, 10 yil konslagerga hukm etilgan. 1989-yil 30-martda reabilitatsiya qilingan.

Abdulkarim Abdurahobxo'jayev – 1894-yili Marg'ilon shahrida tug'ilgan. Farg'ona shahar O'sh ko'chasi 58-uyda yashagan. Millati o'zbek. U o'zbek boshlang'ich maktabini bitirgan. 1921-yildan Marg'ilon shahar partiya komiteti a'zosi, 1922–1923-yillari Marg'ilon uyezd partiya tashkiloti a'zosi bo'lgan. 1922–1923-yillari Marg'ilon uyezd partiya tashkiloti raisining o'rinbosari, 1923–1924-yillari Uchqo'rg'on partiya tashkiloti raisi, 1925–1926-yillari Marg'ilon uyezd Qo'shchi soyuzi raisi, 1926–1927-yillari Oltiariq rayon ijroiya komiteti raisi, 1927–1928-yillari Marg'ilon rayon ijroiya komiteti raisi lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan. U Qo'qon muxtoriyatining a'zosi, "Sho'royi islom" va "Milliy ittihad" tashkilotlarining faol a'zosi bo'lgan. 1936–1937-yillari O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy komitetining 3-kotibi lavozimida ishlagan. 1938-yil 14-oktyabrda Toshkentda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasida tuzilgan akt Davlat xavfsizlik xizmati katta leytenanti Shishkin, Ishchi-dehqon Qizil armiyasi bosh harbiy prokurori, 1-toifali harbiy yurist Shultsianlar tomonidan imzolangan. Otuvga hukm etilgan 36 nafar mahbuslar ro'yxatida Abdulkarim Abdurahobxo'jayev ham bo'lgan.

Azizbek MAHKAMOV, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA, tadqiqotchi

(Davomi kelgusi sonda).



“Ziyoli millat, Vatan nima edig'ini bilir va ziyoli millat uchun jonini, molini fido etar va millatning taraqqiyi uchun doimo harakat etar.

Munavvar qori ABDURASHIDXONOV

TARIX VA TAQDIR

Is'hoqxon Ibrat (1862–1937) serqirra faoliyati bilan jadidlar harakatini yangi bosqichga olib chiqqan, millatni ilm-fan orqali dunyo bilan bog'lagan haqiqiy islohotchi edi. Ammo bu islohotchilik yo'li oson kechmagan.

1886-yili Qo'qondagi madrasa tahsilini tamomlab, To'raqo'rg'onga qaytgan yosh Is'hoqxon usuli savtiya maktabini ochadi. Biroq, mahalliy mutaassib va amaldorlar uni "kofirlar maktabi" deb baholab, yoqtirishga muvaffaq bo'ladi. Bu mag'lubiyat Ibrat uchun katta dars bo'ladi. U faqat g'oyaning o'zi yetarli emasligini, islohotlar uchun kuchli uslub, mustaqil moddiy-texnik baza va eng muhimi, jahon tajribasini o'rganish zarurligini angladi. Shu maqsad uni 1887-yilda uzoq va mashaqqatli safarga undadi.

Qariyb o'n yil davom etgan safar (1887–1896) garchi ziyoratday ko'rinsa-da, mohiyatan ilmiy ekspeditsiya edi. Ibrat onasi bilan haj qildi, Jiddada volidasidan judo



bo'ldi. Ammo hali Vatanga qaytish niyati yo'q edi. Uning "yo'l xaritasi" hayratlanarli. Istanbul, Sofiya, Afina va Rim shaharlarida bo'lib, texnika yangiliklari va madaniy hayotni o'rgandi. Kobulda bir muddat yashab, Bombay va Kalkutta kabi sanoat markazlarida to'rt yil istiqomat qildi. Hindistonda ingliz, hind va urdu tillarini mukammal o'rgandi. G'arb texnologiyalari Sharq dunyosiga ta'sir ko'rsatayotganini o'z ko'zi bilan ko'rdi.

1896-yili Vatanga qaytgan Ibrat ko'rgan-kechirganlari asosida ishlab chiqqan rejalarni amaliyotga tatbiq qila boshladi. Til egallashni ozodlik va taraqqiyotning shartlaridan biri deb bildi. 1901-yilda chop etilgan "Lug'ati sitta alsina" ("Olti tilla lug'at") asari o'zbek, arab, fors, turk, rus va fransuz tillarini o'z ichiga

JAHONIY DUNYOQARARASH EGASI

olgan bo'lib, millatni dunyoga olib chiqadigan ko'prik vazifasini o'tadi.

"Jome' ul-xutut" (1912) kitobi esa dunyo yozuvlari tarixiga bag'ishlangan nodir tadqiqot bo'lib, unda 41 xil yozuv tizimi haqida ma'lumot berilgan. Bu bilan Ibrat o'z xalqining intellektual darajasini jahon miqyosiga ko'tarishga intildi.

Ibrat islohotlarining eng cho'q-qisi bu uning shaxsiy bosmaxonasidir. 1908-yili u Orenburgdan litografik mashina sotib olib, uni poyezd va tuyalar yordamida To'raqo'rg'onga olib keldi. Ushbu bosmaxona nafaqat Ibratning o'z asarlarini, balki maktablar uchun darsliklar va ma'rifiy materiallarni ham chop etish imkonini berdi. Bu Turkistondagi birinchi mustaqil texnik bazalardan biri edi. Bosmaxona qoshida tashkil etilgan boy kutubxona esa mintaqaning eng yirik madaniyat markaziga aylandi.

1937-yilgi qatag'on to'liqini bu buyuk siymoni ham chetlab

o'tmadi. 75 yoshli olim "aksilinqilobchi" sifatida ayblanib, Andijon qamoqxonasida vafot etdi. Ha, manbalarda aynan shunday bitilgan: "vafot etdi". Aslida u ma'rifat yo'lida, ozodlik ilinjida, taraqqiy orzusida tengsiz kurashga bel bog'lab, bu muhurobada mardonavor halok bo'lgan.

Bugun Ibratning nomi oqlangan, uning merosi esa milliy g'ururimizga aylangan. To'raqo'rg'ondagi memorial majmua, muzey va uning nomidagi ijod maktabi Ibrat boshlagan ma'rifat yo'li davom etayotganining ramzidir.

Ibrat fenomeni bizga shuni o'rgatadiki, milliy yuksalish faqat orzu bilan emas, balki chuqur bilim, zamonaviy texnika va dunyo tajribasini o'zlashtirish orqali amalga oshadi.

Otabek MAXSUDJONOV, Is'hoqxon Ibrat – Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori



TAQDIMOT



XOTIRA

Ustozimiz Ahmad Otaboyevning "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida ish boshlashi o'zbekning ulug' yozuvchilaridan biri Asqad Muxtor bosh muharrir bo'lgan paytga to'g'ri kelgan. Ahmad aka ishni gazetaning adabiyotshunoslik va adabiy tanqid bo'limida boshlab, keyinchalik "Jadid" gazetasida davom ettirdi. Salkam qirq yillik faoliyati davomida ustoz jurnalist yozuvchi-shoir, jurnalistlar qalamiga mansub qanchadan qancha tahliliy maqolalar, taqdirlov va tanqidiy materiallar gazeta sahifalarida e'lon qilinib, o'quvchilarga yetib borishiga katta hissa qo'shdi. Ahmad aqaning muharrirlik mahorati shunda ediki, yozuvchi, shoir, umuman, ijodkorlar haqida bildirilgan har qanday fikr – xoh u tanqidiy, xoh tahliliy bo'lsin, barchasida kimningdir diliga ozor yetmasligi yoki maqtdovning oshib ketmasligiga jiddiy e'tibor berar, me'yor saqlanishiga harakat qilar, bunga erishardi ham.

ASL TAHRIR

Agar gazetada yirik adabiyotshunoslarning maqolalari chop etilganini nazarga olsak, Ahmad Otaboyevning jurnalist mahorati va saviyasi qay darajada bo'lganini darhol anglaymiz. Aslida, nomdor munaqqidlar bilan ishlash oson kechmagan. Ko'pincha o'zgartirish va qisqartirishga e'tiroz bildirgan munaqqidlar, albatta, bosh muharrirga murojaat qilishar, achchiq bahslar ham bo'lardi. Lekin aksariyat hollarda mualliflar tahrir asosli ekanini tan olib, rozi bo'lgan holda tahririya tark etishardi.

Yana bir holatni aytib o'tmasak bo'lmas. Gap shundaki, Ahmad Otaboyev juda ko'p yosh munaqqidlar to'g'ri yo'lga tushib ketishiga, adabiy tanqidchilikda o'z o'rnini topishiga katta yordam bergan ijodkor sifatida ham e'tirofqa loyiq inson. Shaxsan o'zim Ahmad akadan yordam so'ragan paytlarim ko'p bo'lgan. Hech qachon vaqti yo'qligi, ishi tig'izligini ro'kach qilgan emas. Aslida, maqola yozish, suhbat olish, hayot taqozo etayotgan mavzuni ko'tarish kabi professional didimiz Ahmad Otaboyev, Mahmud Sa'diylar "jilvirqog'oz"ida sayqalangan.

U kishidagi insoniy fazilatlarga alohida to'xtalmoqchiman. Avvalo, nihoyatda kamgap, kamtarin, lekin g'ururi baland, ko'rinishi jahldor bo'lsa-da, har bir odam bilan o'ziga qarab muomala qiladigan, oilaparvar odam edi. Farzandlarini nihoyatda sevar, har birining o'qishi, ishlardan muntazam xabardor bo'lib turar, barchasining ilmi bo'lishi uchun jon kuydirardi. Nazarimizda, farzandlari otalarining mehnati-yu zahmatini oqlashdi. Bugun ular hammasi oliy ma'lumotli, o'z kasbida muvaffaqiyatli insonlar bo'lib yetishdi. Ayni paytda uzoq yillar dard chekib, to'shakka mixlanib qolgan ayoliga mehribon, dardkash edi Ahmad aka.



Jurnalistlar, umuman, ijodkorlar yaxshi biladiki, gazeta sohasida ishlaydigan aksariyat insonlar o'zgarar yozuv-chizuvdan ortmaydi. Ahmad aka esa bir emas, yuzlab asarlarni o'qishga ulgurani, ularning aksariyati haqida matbuot orqali yoki hamkasblari davrasida fikr bildirib, bahs-munozaralar qilib turgani ham bor gap. Sirasini aytganda, Ahmad Otaboyev faqat jurnalist emas, ayni paytda yetuk adabiyotshunos va tarjimon ham edi.

Afsuski, o'lim haq. O'zbek jurnalistikasi va adabiyoti Ahmad Otaboyev timsolida katta bir ijodkordan ayrildi. Hamkasbimiz yorug' dunyoda munosib yashadi, so'nggi safargacha ham haqiqiy ziyoli, vijdoni pok tanqidchi bo'lib qoldi. Fikri ojizimcha, Ahmad Otaboyevning muharrirlik mahorati faqat qog'ozlarda qolib ketmaydi. U o'z hayotini ham chiroyli tahrir qilib, avlodlariga, kelajak shogirdlariga go'zal ibrat kitobini qoldirdi.

Ilohim, oxiratlarini obod bo'lsin!

Gulchehra UMAROVA

Mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma'rifiy hayotini xolis va tizimli yoritib kelayotgan "ISHONCH" va "Ishonch-Doveriye" gazetalarini tahririyati 2018-yildan buyon yil mobaynida e'lon qilingan eng sara maqolalarni an'anaviy tarzda bir muqova orasida kitob-majmua holida o'quvchilarga taqdim etib kelmoqda. Bu esa tahririyat ish uslubining izchilligi, tahliliy yondashuvning mustahkamligi va jamoaning kasbiy mas'uliyatini namoyon etadi. Xususan, "1 yilga 1 nazar...", "ISHONCH" aytadiki...", "Millatni ulg'aytirgan yil", "2021 (fakt va dalillar, mulohazalar va munozara, tanqid va tahlil, talqin va xulosalar)" hamda "Nigoh" kabi to'plamlar ana shu izchil ijodiy jarayonning mantiqiy davomi sifatida maydonga chiqqan.

Mazkur to'plamlarda jamiyat hayotidagi muhim jarayonlar, dolzarb muammolar, fikrlar xilma-xilligi va tanqidiy yondashuvlar chuqur tahlil asosida yoritilgan bilan ahamiyatlidir.

Tashkil etilganidan buyon 5 ming 250 dan ziyod sonda nashr etilgan minglab materiallar orasidan eng ahamiyatli va mazmunan salmoqliklarini saralab olish, ularni bugungi shiddatli davr talablariga mos, puxta va mukammal majmua shaklida taqdim etish, shubhasiz, yuksak zakovat, katta mehnat va mas'uliyatli yondashuvni talab etadi.

Yaqinda mazkur ezgu an'ananing mantiqiy davomi sifatida navbatdagi to'plam nashr etildi. Unda 2025-yil davomida gazeta sahifalarida e'lon qilingan publististik, tahliliy-tanqidiy va mulohazali maqolalar, shuningdek, suhbatlar jamlanib, "Sak-

kizinci mo'jiza" nomi ostida o'quvchilarga taqdim qilindi.

Keng jamoatchilik, mushtariylar, kasaba uyushmalari a'zolari, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining jurnalistika fakulteti o'qituvchi hamda talabalariga mo'ljallangan mazkur kitobning taqdimoti kecha O'zbekiston milliy matbuot markazida bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi, senator Qudratilla Rafiqov, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, senator Abdusaid Ko'chimov, adabiyotshunos, pedagogika fanlari doktori, professor Qozoqboy Yo'ldoshev, taniqli jurnalist Ahmadjon Meliboyev, "Nuroni" jamg'armasi Respublika boshqaruvi raisi o'rinbosari Sharof Ubaydullayev, Yozuvchilar uyushmasi raisining o'rinbosari Farida Afro'z kabi publististlar va ijodkorlar ishtirok etib, mazkur kitobning mazmuni, ijtimoiy va kasbiy ahamiyatini atroficha muhokama qildi. Notiqlar "ISHONCH" gazetasida sahifalarida bugungi kun hayotini aks ettiruvchi o'tkir publististik va tahliliy maqolalar, suhbatlar, dunyodagi muhim voqealarga bag'ishlangan siyosiy sharhlar muntazam chop etilayotganini alohida ta'kidladi.

Darvoqe, o'tgan davr mobaynida, ayniqsa, so'nggi uch yil ichida gazeta Yangi O'zbekiston axborot makonida nufuzli nashrlardan biri sifatida mustahkam o'rin egalladi. Bugungi kunda u mazmun va mavzu jihatidan rang-barangligi, tahliliy va dolzarb materiallari bilan respublikadagi eng ko'p o'qiladigan nashrlar qatorida munosib e'tirof etilmog'da.

"Gazetani biz faqat axborot vositasi tarzida emas, balki madaniy va ijodiy maydon sifatida ham rivojlantirishni maqsad qilganmiz. Har bir sonida o'zbek san'ati va madaniy hayotining

muhim yo'nalishlariga bag'ishlangan qimmatli ma'lumotlar, adabiy asarlar va eng noyob ijodiy durdonalar o'quvchilar e'tiboriga havola etiladi. Jurnalistikaning turli janrlarida yozilgan dolzarb talqinlarni o'z ichiga olgan bu kitob 2025-yilda erishgan yutuqlarimizni namoyon etadigan sarhisob to'plamdir, dedi "Ishonch" va "Ishonch-Doveriye" gazetasi bosh muharriri, senator Husan Ermatov.

So'nggi yillarda tahririyatda o'ziga xos ijodiy muhit shakllandi. Zamon talablariga uyg'un faoliyat yuritib, u konvergent tahririyat sifatida o'z salohiyatini namoyon etmoqda. Xususan, Media markaz tashkil etildi, ijtimoiy tarmoqlarda rasmiy sahifalar yo'lga qo'yilib, ularning auditoriyasi izchil kengayib bormoqda. Shuningdek, gazetani obunachilarga tezkor va uzluksiz yetkazishni ta'minlash maqsadida hududiy bosmaxonalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo'lga qo'yildi. Ayni paytda tarqatish tizimini yanada takomillashtirish borasida olib borilayotgan tizimli ishlar nashrning qamrovi va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.


Ma'lumot o'rinda aytish mumkinki, tahririyat tomonidan avvalroq chop etilgan "Biz hayotdan rozimiz" to'plamida Davlat rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan "Ayollar daftari" orqali hayotlari ijodiy tomoniga o'zgarar ayollarning minnatdorlik maktublari jamlangan edi. "Mening Prezidentim" to'plamida esa O'zbekiston yoshlarining Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatda amalga oshirilayotgan hayotbaxsh o'zgarishlarga munosabati aks ettirilgan insholar o'rin olgan. Shuningdek, "Bir so'z..." to'plamida gazeta xodimlarining ijodiy namunalari bir jamlanma holda taqdim etilgan.

O'z muxbirimiz.

MUJDA

Qodiriyning kitobi chiqdi

Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi o'quvchisi Samariddin Qodiriyning hikoya va ertaklarini o'qidim. To'g'risi, ko'ngilda bir yorug'lik, yosh qalam egasining yozganlaridan umid paydo bo'ldi.



Bu kichik asarlarda bolalar tafakkuriga mos beg'uborlik, soddalik seziladi. Uning dunyoga bola nazari bilan qarayotgan turli ismdagi qahramonlari pokizalik va to'g'rilik, haqiqat va adolat tarafdorlaridir. Bu juda zarur mezon. Ayrim hikoyalarda "Nima qilsam ekan?" degan savol bilan yakuniga yetibdi. Hajmi katta emas. Ixcham. Shunga mos ravishda, voqeali bayonida ham ortiqcha tafsilot kuzatilmaydi.

Kaptar boqishga qiziqqan bola katta bir odamning nojoiz qilmishini ko'rib, o'ylanib qoladi. Hikoyada muallif sinchkovligiga guvoh bo'ldim: kaptarlarning turlarini ajratadi, ta'rifiyladi, tavsifiyladi. Yozish uchun bunday nazar zarur, albatta. Yoxud, bir falokatdan qutulgan Baroqvoy hikoyasini olaylik. Baroqvoyini ofatdan asar qahramoni bo'lmish bolaning akasi – No'mon qutqaradi. "Baroqvoyning bizga nisbatan No'mon akamga mehri boshqacha" – hikoya negizida shu gap turibdi. Ba'zida ulkan hajmi asarlar shunga o'xshash yoyiq bir gap uchun yoziladi.

Abdulla Qodiriy yozgan bir hikoya roviy bolaning "Vaqtigiz bo'lsa, juma kuni siz ham boringiz", degan gapi bilan yakun topadi. Zukko bobosiga monand, Samariddin ham asalarilar to'g'risida yozar ekan: "Bu haqda sizlarga albatta yozib yuboraman", degan jumla bilan voqeaga nuqta qo'yadi. Hikoyachi bilan barobar qiziquvchan o'quvchida ham asalarilar haqida ma'lumotlar izlash istagi paydo bo'ladi. Qushlar, hayvonot bog'idagi jonivorlar, asalarilar, mushuklar, kuchuklar, bir so'z bilan aytganda, tabiatning bunday tirik bo'lagi kitob muallifining tasvir obyektiga aylanadi.

"Mehr"da bobo nabirasiga: "Lochin go'shtxo'r qush. Ammo u o'zi ov qilib, topgan o'ljasini yeydi. Tekinxo'r emas", deb saboq beradi. Bu hikmatni, qushning bu mardona fazilatini hamma ham bilavermaydi. "Qassob amaki" o'z ismiga mos yashaydi. Ismlarda hikmat jamlanadi. Dunyo yozuvchilari o'z asarlari qahramonlari uchun tanlagan ismlarga ma'no yuklaydi. "Usta tog'a"dagi qumdan chiqqan uzuk muhim detal, deb o'yladim. Tilla buyum har kimning diqqatini tortadi, ustaning "shumligi"dan o'quvchi yuzida nim tabassum uyg'onadi. O'ziga xos tadbiridan mamnun ham bo'ladi.

Samariddinning ko'p hikoyalarda mardona, halol va odil bo'lishga, hayotda to'g'ri yashashga chaqiruv motivlari seziladi. Yomondan qochib, yaxshiga yondoshmoq kerak aslida, adabiyotning asosiy vazifalaridan biri shu kabi bebaho tushunchalarni barchaga birdek anglatishdan ham iborat.

Samariddin Qodiriyning "Mehr" kitobchasini qo'lga olar ekanman, beixtiyor, "Oqqan daryo oqaveradi", degan o'y kechdi xayolimdand. Katta bobo, bobo, ota va bola – to'rt avlodning o'zaro ijodiy misolida adabiyotshunoslikdagi muhim bir fikr – adabiy sulolalarning nazariy tadqiqi degan tushuncha ham

maydonga keladi. Dunyo va o'zbek adabiyoti tarixida bu adabiy-nazariy tezis uchun misollar topiladi, albatta. Hozir esa qo'lmdagi kitoblarga boqib, Qodiriylar adabiy sulolasi shunday izlanish va tadqiq uchun asos bo'ladi, deb o'yladim. Zero, "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon"dek dunyoga mashhur romanlar sohibi Abdulla Qodiriyning to'ng'ich farzandi Habibulla Qodiriyning "Otam haqida" kitobidan boshqa badiiy asarlari ham bor. Habibulla Qodiriyning farzandi Sherkon Qodiriyning "O'tkan kunlar"ning taqdiri dan tashqari, "37-xonador", "Do'lvor yigit" nomli asarlari bor.

Muhtaram gazeton, biz jinday fikr yuritgan va yaqinda bosilib chiqqan "Mehr" to'plami – Sherkon Qodiriyning farzandi, Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi bitiruvchisi Samariddin Qodiriyning ilk kitobidir. Birinchi kitob, tabiiyki, yosh ijodkorning o'quvchilar uchun yozadigan ilk ma'naviy dasturxon va va'dasi hamdir.

Umid va ishonch shulki, iste'dodli adib Abdulla Qodiriyning chevarasi Samariddin Qodiriy kelgusida o'zining bebaho ijod namunalari bilan Qodiriylar adabiy sulolasining munosib davomchisi bo'lajak.

Bahodir KARIM, professor

TILBILIM

NEGA SUQSURDAY DEYMIZ?



Xalqimizda chiroyli, kelishgan, go'zal qizlarga nisbatan "Suqsurday qiz bo'пти", "suqsurdakina" degan iboralar qo'llanadi.

Bir qarashda bu so'zda suq so'zi borligi uchun "suq tegadigan darajada chiroyli" deb ham o'ylash mumkin.

Qizlarga suqsurday deb beriladigan ta'rifdagi suqsur so'zining ma'nosini hamma ham bilavermaydi. Shuning uchun suqsur so'ziga alohida to'xtalaymiz.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da bu so'zga shunday izoh bor: suqsur – o'rdaksimonlar oilasiga mansub, patlari uzun va ingichka qush.

Ko'qamish ko'lidan suqsur uchirdim, Suqsurni izlagan lochin bo'laman.

"Alpomish" dostonidan.

Shu o'rinda so'na – yovvoyi o'rdakning erkagining nomi ekanini ham eslatib o'tish joiz.

Eshqobil SHUKUR

Jadid
adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Mas'ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Muhayyo Rustamova

Adadi – 18 407

Shundan:
Kirill yozuvida – 6 710
Lotin yozuvida – 11 697
Media kuzatuvchilar – 79 475
Buyurtma: G – 340
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6 6

Sahifalovchilar:

Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manziliimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:00

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz

Muassislar:



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVİYAT VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI



"SHAHLDLAR XOTIRASI" JAMOAT FONDI